	Карниз	<p>Karniz – bino tomi (yopmasi)ni tutib turuvchi, devorni yomg'ir suvlaridan himoyalovchi hamda bezak vazifasini bajaruvchi devordagi gorizontal chiqiq. Tepada joylashgan va oraliq karnizlar bo`ladi. Order arxitekturasida antablementning ustki qismi bo`lib, friz va arxivtravdan balandda joylashadi.</p>	Cornice
	Каскад	<p>Kaskad – tabiiy yoki sun'iy tashkil qilingan pog'onali sharshara. Xiyobon arxitekturasida kaskad turli xil balandlikdagi suv havzalaridan suv oqib tushuvchi pog'onalar, zinapoyalarni joylashtirib hosil qilinadi. Yuqoridagi havzaga suvni tabiiy buloq yoki daryodan keltirish mumkin. Nasoslar yordamida suvni tepaga – kaskadning boshlanishiga ko'tarish ham mumkin.</p>	Cascade
	Кассеты, кассетоны, кессоны	<p>Kassetalar, kassetonlar, kessonlar – shipga, arka va gumbazlarning ichki devorlariga bezak uchun ishlangan kvadrat yoki ko'p burchaklik shaklidagi chuqur naqsh. Konstruktiv va bezak vazifasini bajaradi, shuningdek xona akustikasini yaxshilash maqsadida qo'llaniladi.</p>	Cassettes, coffers
	Катакомба	<p>Katakomba – yer ostidagi tabiiy yoki suniy bunyod etilgan aylanma chalkash yo'llar, g'orlar. Qadimda diniy marosimlarni o'tkazish va o'liklarni dafn qilishda foydalanilgan.</p>	Catacomb
	Кафедра	<p>Kafedra, minbar – xristianlarda, yepiskop uchun mo'ljallangan faxriy kreslo, xristian cherkovlarida va'z o'qish uchun minbar.</p>	Pulpit, lectern





	<p>Квадр</p>	<p><i>Kvadr – devor va gumbazlarni tiklashda ishlatiladigan parallelepiped shaklidagi tosh blok. Rasmda “brilliant” kvadrning tasviri keltirilgan.</i></p>	<p>Quadra</p>
	<p>Кемпинг</p>	<p><i>Kemping – avtoturistlar uchun palatkalar va yengil tipdagi uylardan tiklanib, zarur sharoitlar yaratilgan yozgi lager. Palatka yonida yoki umumiy maydonchada avtomobillarni saqlash joyi bo`ladi. Ko`p hollarda kempinglar avtomobillarni texnik ko`rikdan o`tkazish, xizmat ko`rsatish va yuvish joylari bilan jihozlanadi.</i></p>	<p>Camping</p>
	<p>Классицизм</p>	<p><i>Klassitsizm – XVII-XVIII asrlarda Farbiy Yevropa san`atida klassik antik san`atning namunalariga taqlid qiluvchi oqim. Klassitsizm arxitekturasi planlarning aniqligi, kompozitsiya va shakllarning qat`iy simmetrikligi hamda tashqi ko`rinishdagi bezaklarning sipoligi bilan ajralib turadi.</i></p>	<p>Classicism</p>
	<p>Колонна</p>	<p><i>Kolonna, ustun – dumaloq ko`ndalang kesimli, arxitekturaviy ishlov berilgan vertikal tayanch, arxitekturaviy orderlarning markaziy elementi. Ustun-xarili konstruksiyalarning oddiy elementi sifatida paydo bo`lib, Qadimgi Misr va Qadimgi Gretsiya san`atida klassik ko`rinishga kelgan. Tepasiga haykal o`rnatilgan, alohida turgan kolonnalar odatda yodgorlik bo`lib xizmat qiladi. Qarqasli binolarda kolonnalar (tosh, temir-beton, metal, yog`och) karkasning asosiy elementlaridan hisoblanadi.</i></p>	<p>Column</p>






	<p>Колоннада</p>	<p>Kolonnada – <i>antablement bilan o`zaro bog`langan, ko`pincha umumiy yopmaga ega bo`lgan kolonnalar qatori yoki qatorlari. Binolarning tashqi kompozitsiyasida kolonnada portik va galereya ko`rinishida ishlatiladi. Ba`zan kolonnada mustaqil inshoot bo`ladi. Kolonnada bilan yirik zallar o`rab olinadi. Interyerning alohida bezatilgan qismlari kolonnada yordamida qismlarga ajratiladi yoki o`zaro bog`lanadi.</i></p>	<p>colonnade</p>
	<p>Колонна триумфальная</p>	<p>Zafar kolonnasi – <i>zafar arkasiga o`xshab, yodgorlik xarakteridagi inshoot. Tarixiy voqealar, g`alabali yurishlar haqidagi xotiralarni asrlar davomida saqlash maqsadida tiklanadi. Rasmda admiral Nelsonning 1805 yildagi dengiz jangidagi g`alabasi sharafiga 1841 yilda Trafalgar maydonida tiklangan zafar kolonnasi tasvirlangan. Balandligi 56 m lik kolonnaning tepasiga mashhur admiralning 5 m lik haykali o`rnatilgan.</i></p>	<p>Vertical tower</p>
	<p>Композиция</p>	<p>Kompozitsiya (lot. - tuzilish) – <i>arxitektura ob`ektining yaxlitligi va tugalligini ta`minlaydigan, inshootdagi barcha elementlarning bir xilligi va bog`lanishi. Arxitektura kompozitsiyasining vazifasi funksional, texnik, iqtisodiy va estetik talablarning uyg`unliginin taminlashdan iborat. Bu yerda estetik talablar umumiy dasturning faqat bir qismini tashkil qiladi.</i></p>	<p>Composition</p>




	<p>Конструктивизм</p>	<p>Konstruktivizm – birinchi jahon urushidan keyin industrial texnikaning rivojlanishi, bin ova inshootlarning yangi tiplari joriy qilinishi bilan arxitekturada rivojlangan yo`nalish. Konstruktivizm arxitekturada inshootlarning konstruksiyasini ochib berishi (nomlanishi shundan olingan) kerak bo`lgan, funksional va konstruktiv maqsadga muvofiqlik, shaklning ratsionalligi talab qilingan. Ayrim davlatlarda buy o`nalish ratsionalizm, funksionalizm deb ataladi. Shaklning o`ta soddalashtirilganligi konstruktivistik inshootlarga xos.</p>	<p>Constructionism</p>
	<p>Консоль</p>	<p>Konsol – bir uchi devorga mahkamlangan yoki to`sinning, balkaning devordan chiqib turgan va balkon, karniz, haykal singlarlarni ko`tarib turadigan qismi. Konsolning yon tomondan ko`rinishi ko`pincha o`ram shaklida bo`ladi.</p>	<p>Console</p>
	<p>Контрфорс</p>	<p>Kontrfors – asosiy yuk ko`taruvchi konstruksiya (tashqi devor)ni kuchaytirib, gorizontal kuchlarni qabul qiladigan tosh, beton yoki temir-betondan tiklangan ko`ndalang devor, vertikal chiqiq. Gotik konstruksiyalarda tosh kontrfors asosiy elementlardan hisoblanadi. Arxitektura yodgorliklarini ta`mirlashda devorlarni mustahkamlash uchun kontrforslar keng qo`llaniladi.</p>	<p>Abutment, pier</p>
	<p>Коринфский ордер</p>	<p>Korinf orderi – Yunonistonning Korinf shahrida eramizdan avvalgi V asrning ikkinchi yarmida shakllangan arxitektura orderi. Baland kolonna asos, stvol, o`yilgan kannelyuralar va jimjimador kapiteldan tuzilgan bo`ladi.</p>	<p>Corinthian order</p>




	<p>Коттедж</p>	<p>Kottedj – <i>katta bo`lmagan yer maydoniga ega, qishloq yoki shahardagi bir kvartirali individual turar-joy binosi. Ichki zinapoyasi bo`lgan ikki qavatli kottedjlarning birinchi qavatida umumiy xona, oshxona, xo`jalik xonalari, ikkinchi qavatida esa yotoqxonalar joylashtiriladi. Kottedj XVI asrning oxiri XVII asrning boshlarida Angliyada paydo bo`lgan. Hozirgi davrda boshqa davlatlarda ham keng terqalgan.</i></p>	<p>Cottage</p>
	<p>Красная линия</p>	<p>Qizil chiziq – <i>shaharsozlikda ko`cha, yo`l, magistral va maydonlarni qurilishga ajratilgan hududdan ajratuvchi shartli chegara.</i></p>	<p>Frontage line</p>
	<p>Крепость</p>	<p>Qal`a, qo`rg`on – <i>shahar, aholi punkti yoki malum hududni himoyalashga mo`ljallangan mudofaa inshooti. Rasmda Xivadagi Ichon-qal`aning tamirlangan mudofaa devorlari tasvirlangan.</i></p>	<p>Fortress</p>
	<p>Кромлех</p>	<p>Kromlex – <i>megalitik inshootlarning eng murakkab turi. Aylana bo`ylab vertikal o`rnatilgan tosh ustunlar yoki plitalar, tepasidan tosh bloklar bilan o`zaro bog`langan konstruksiya.</i></p>	<p>Cromlech</p>
	<p>Кулуары</p>	<p>Kularlar – <i>jamoat binolari (parlamentlar, teatrlar, kutubxonalar kabilar)da dam olish, norasmiy uchrashuvlar va ishlash uchun foydalaniladigan foye, zal va koridorlar.</i></p>	<p>The third house</p>





	<p>Купол</p>	<p>Gumbaz, qubba – <i>shakli yarim sferaga yaqin bo`lgan yopma. Tashqi qobiqi barabanlarga o`rnatilgan gumbazlar Markaziy Osiyo me`morchiligida keng tarqalgan. Samarqahd, Xiva, Buxoro kabi qadimiy shaharlardagi tarixiy obidalarning ko`pchiligida gumbazlar kompozitsiya uyg`unligini tamonlagan.</i></p>	<p>Cupola</p>
	<p>Лепнина</p>	<p>Lepnina – <i>binolarning fasadi va interyeridagi relefli bezaklar. Odatda gips, suvoq, beton va boshqa materiallardan quyib yoki presslab tayyorlanadi. Lepnina dastlab Qadimgi Rim va Qadimgi Gretsiyada interyerda ishlatib boshlangan.</i></p>	<p>Barbola</p>
	<p>Лоджия</p>	<p>Lodjiya – <i>katta bimolarda bir yoki bir nechta tomoni ochiq bo`lgan va devorlar o`rnini kolonnalar qatori yoki panjaralar bilan almashtirilgan maket xona. Lodjiya alohida inshoot yoki binoning tarkibiy qismi bo`lishi mumkin.</i></p>	<p>Loggia</p>
	<p>Люкарна</p>	<p>Lyukarna – <i>tom chordoqi yoki gumbazidagi dumaloq yoki to`rtburchak shaklidagi deraza o`rni. Lyukarnalar bezak vazifasini ham bajarib, chaspak yoki ganchkorlikda bajarilgan xoshiya bilan qoplanadi.</i></p>	<p>Roof hatch</p>
	<p>Мавзолей</p>	<p>Mavzoley, maqbara – <i>marhum jasadi joylashtiriladigan kamerali, dafn qilinadigan monumental inshoot. Mavzoleylar Qadimgi Rim o`rta asrlarda Sharqda keng ommalashgan. XX asrdagi totalitar davlatlarda mavzoleylar “dohiy”larning maqbarasi sifatida qo`llanilib boshlangan.</i></p>	<p>Charnel house</p>




	<p>Макет</p>	<p>Макет – narsalarning haqiqiy kattaligida yoki kichraytirib yasalgan dastlabki namunasi, modeli; biror narsaning modeli. Obyektni namoyish qilish uchunga mo'ljallangan. Obyekt originalini namoyish qilishning imkoni bo'lmasa yoki u maqsadga muvofiq bo'lmagan hollarda foydalaniladi.</p>	<p>Model, maquette</p>
	<p>Манеж</p>	<p>Манеж – ot o'rgatiladigan, chavandozlar, otliq askarlar mashq qiladigan, ot sporti musobaqalari o'tkaziladigan dumaloq yoki to'g'ri to'rtburchak shaklidagi bino.</p>	<p>Drill-hall, riding - hall</p>
	<p>Марш лестничный</p>	<p>Zina marshi – zinapoya konstruksiyasining navbatdagi ikki supa yoki qavatlar o'rtasidagi oraligni bog'laydigan qism. Kosour, zinapoya va to'siqdan tashkil topadi. Marshning uzunligi zinapoyalarning soni bilan aniqlanadi: marshda zinapoyalar 3 dan kam va 18 dan ortiq bo'lmasligi kerak. Zinapoyaning gorizontaal yuzasi (eni 30 sm) prostup, vertikal yuzasi (balandligi 15 sm) – podstupyonok deyiladi. Marshning ko'tarilish burchagi qiyalik deb nomlanadi. Qiyshiq chiziqli va vintsimon zinalarda zinapoyaning eni har xil bo'ladi.</p>	<p>Flight of stairs</p>
	<p>Мансарда</p>	<p>Мансард, qiya shipli boloxona – bino chordoqida joylashgan, ko'p xollarda yashash uchun mo'ljallab jihozlangan xona. Ikki nishabli tomning yuqorigi qismi qiyalama, pastki qismi tik shaklda bo'ladi. Mansard konstruksiyasi fransuz arxitektori F.Mansard tomonidan ishlab chiqilgan. Keng ma'noda baland tom chorgog'idagi har qanday xonaga mansard deyiladi.</p>	<p>Mansard, attic</p>





	Меандр	Meandr – <i>Kichik Osiyodagi o`zani ilon izi daryoning nomi. Grometrik naqshlardan bir turining nomlanishi. Dastlab uzluksiz egri chiziqlar va o`ramlardan, keyinchalik siniq chiziqlardan iborat naqshlar.</i>	Meander
	Мегалиты, мегалитические постройки	Megalit, megalitik inshootlar (grekcha – “katta toshlar”) – <i>qo`pol ishlov berilgan tosh bloklardan tiklangan arxeologik yodgorliklar. Quyidagilar megalitlar hisoblanadi: mengirlar – yerga ko`mib vertikal o`rnatilgan tosh ustunlar; kromlexlar – toshlardan tuzilgan xiyobonlar; dolmenlar – galereyali sag`analar, tosh qutilar, yopiq galereyalar.</i>	Megalith
	Медальон	Medalon (fransuzcha – “katta medal”) – <i>arxitektura va amaliy san`atda - oval yoki aylana ichiga o`yma yoki ganchkorlik uslubida bajarilgan relef yoki naqsh, mozaika, rasm. Medalchilik san`atida relefli tasvir yoki portret ishlangan dumaloq yoki ovalsimon plastinka: ko`pincha metallardan tayyorlanadi.</i>	Locket
	Мезонин	Mezonin (italyancha – kichik uy) – <i>katta bo`lmagan turar-joy binosining o`rta qismiga solingan ustki qavat. Mezoninlar ko`pincha balkon bilan quriladi.</i>	Garlow
	Менгир	Mengir – <i>odatda ishlov berilmasdan vertikal o`rnatilgan baland toshlar. Mengirlar Yevropa, Afrika va Osiyoning turli qismlarida keng tarqalgan. G`arbiy Yevropada, ayniqsa Buyuk Britaniya, Irlandiya va Fransiyaning Bretan ghjvinsiyasida ko`p uchraydi.</i>	Menhir





	<p>Мечеть</p>	<p>Masjid, machit – musulmonlarning toat ibodatlarinin bajaradigan joy, inshoot. VII-VIII asrlardan boshlab gumbaz-markazli (Toshkentdagi Juma masjidi) va ustunli (Xivadagi Juma masjidi) masjidlarning turlari shakllangan. Mahalliy urf odatlar tasirida turli mamlakatlarda masjidlarning mustaqil tiplari shakllangan.</p>	<p>Mosque</p>
	<p>Микрорайон</p>	<p>Mikrorayon – shaharda zamonaviy turar-joy binolari qurishning boshlang`ich birligi. Mikrorayon tarkibiga turar-joy binolari kompleksi va uning yaqinida joylashgan madaniy-maishiy xizmat ko`rsatish shaxobchalari (bolalar bog`chalari, yaslilar, maktablar, ovqatlanish joylari, universamlar, oziq-ovqat va sanoat mollari magazinlari) kiradi.</p>	<p>Microdistrict, community</p>
	<p>Минарет</p>	<p>Minora, minor – musulmonlarni namozga chorlash uchun tiklangan inshoot. Ko`ndalang kesimi dumaloq. Kvadrat yoli ko`r yoqlik shaklida bo`lishi mumkin. Dastlabki minoralarning ichida vintsimon zinapoya yoki tashqarisida pandus (nishab yo`lka) (spiralsimon minoralar) bo`lgan. Minoralarning ikkita – to`rt tomonli (Shimoliy Afrika), yoki dumaloq (Yaqin va O`rta Sharq) o`zakli asosiy turlari mavjud. Minoralar naqshinkor g`ishtlardan qurilgan, sirlangan sopol bilah qoplangan va ularga jimjimador balkonlar o`rnatilgan. Kichik masjidlarda odatda minora bo`lmaydi (yoki bitta minorasi bo`ladi), o`rtacha masjidlarda ikkita va katta masjidlarda toqrttadan oltitagacha minorasi bo`ladi. Makkadagi Al-Xaram masjidida eng ko`p – to`qqizta minora bor.</p>	<p>Minaret</p>



	<p>Модерн</p>	<p>Modern (fransuzcha – zamonaviy, eng yangi) – <i>XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida yangi materiallar va texnik vositalardan foydalanish imkoniyatlarining ortishi hamda bino individualligini ta'kidlab ko'rsatish uchun paydo bo'lgan arxitekturadagi stil yo'nalishi. Modern uchun originallikka intilash, odatdagi shakllarning deformatsiyalanganligi (egilgan karnizlar, deraza o'rinlarining egri chiziqli shakllari, bo'rttirilgan asimmetriya va h.) xarakterlidir.</i></p>	<p>Modern</p>
	<p>Модуль</p>	<p>Modul (lotincha – o'lchov) – <i>biror arxitektura inshooti uchun belgilangan va uning tarkibiy elementlarining nisbatini ifodalovchi o'lchov birligi. Moduldan foydalanish inshoot va uning qismlariga aniq mutanosiblik berishga imkon yaratadi. Arxitektura orderlari sistemasida kolonnaning pastki diametri modul sifatida qabul qilinadi.</i></p>	<p>Pitch, modular package</p>
	<p>Модульон, МОДИЛЬОН</p>	<p>Modulon – <i>kronshteyn tipidagi arxitektura detail, order arxitekturasida karniz plitasini ko'tarib turishga mo'ljallangan. Ba'zan modulon faqat bezak vositasi sifatida qo'llaniladi.</i></p>	<p>Modillion</p>
	<p>Мозаика</p>	<p>Mozaika, qadama naqsh – <i>rangli toshlar, rangli shishalar yoki sopol plitalarning mayda bo'laklaridan tuzilgan tasvir. Amaliy bezak va monumental san'at janrlaridan bi turi.</i></p>	<p>Mosaic</p>





	<p>Наличник</p>	<p>Chaspak – <i>deraza o`rnining bezak bilan xoshiyalanishi. Fronton, ikkita vertikal uctun va derazatokchadan iborat bo`ladi. Ko`p hollarda, ayniqsa yog`ochdan tiklangan binolarda o`yma naqshlar bilan bezatiladi.</i></p>	<p>Platband, jamb, jambeau</p>
	<p>Небоскреб</p>	<p>Osmono`par imorat, ko`p qavatli baland bino – <i>bir nechta o`mlagan qavatlardan iborat bino (savdo-sotiq, ma`muriy, mehmonxona, turar-joy va h.). Shahar qurilishida binolarning zichlashuvi va yer uchastkalarining qimmatligi hamda temir karkaslar va passajir liftlarning ixtiro qilinishi sababli 1880 yillardan boshlab AQShda ko`p qavatli baland binolar qurilishi boshlangan. Dubaydagi Burj Xalifa (2010 y.) osmono`par binosining balandligi 828 m ga teng.</i></p>	<p>Skyscraper</p>
	<p>Ниша</p>	<p>Taxmon, tokcha – <i>haykal, vazalarni qo`yish, ichiga shkaf kabilarni joylashtirish uchun mo`ljallangan devordagi o`yiq. Ba`zan devorga plastic ishloov berish uchun han tokchalar qurilaadi. Yarimaylana tokchalar eksedra deb ataladi.</i></p>	<p>Niche</p>
	<p>Обелиск</p>	<p>Obelisk, yodgorlik – <i>tepaga tomon torayib boruvchi, pyramidal o`tkir uchli tomonlari tarashlangan (kesimi odatda kvadrat shaklida) tosh ustun. Yodgorlik va monumentlarning keng tarqalgan turi. Obelisklar Quyosh ramzi bo`lgan Qadimgi Misr arxitekturasining zaruriy elementlaridan biri.</i></p>	<p>Guglio</p>





	<p>Обломы, мулюры</p>	<p>Oblom, arxitektura elementlarining profili – ko`ndalang kesimi (profili) turlicha bo`lgan arxitektura elementlari. Oblomlar order arxitekturasida keng tarqalgan bo`lib, arxitektura bezagini kuchaytirishga xizmat qiladi. Oblomlar dastlab Qadimgi Gretsiyada qo`llanib boshlangan, keyinchalik Qadimgi Rim me`morchiligida o`zlashtirilgan.</p>	<p>Molding</p>
	<p>Обмеры</p>	<p>O`lchash – arxitektura inshooti yoki kompleksning barcha elementlarini aniq o`lchash va ularning o`lchamlarini chizmada qayd etish. Arxitektura yodgorliklarini ta`mirlash yoki qayta tiklashda o`lchashlar asosiy manbalardan biri hisoblanadi. O`lchashlar arxitekturashunoslikda shakl hosil qilish qonuniyatlarini tahlil qilishda zarur materialdir.</p>	<p>Measuring</p>
	<p>Объемно-планировочные элементы</p>	<p>Hajmiy rejalashtirish elementlari – binoning hajmi-rejalashtirish tuzilishini belgilaydigan yirik qismlari. Binoning arxitekturaviy sifati (qavatlar, chordoq, boloxona va b.)ni belgilaydi.</p>	<p>Volume plan solution</p>





	<p>Овы, ионики</p>	<p>Ovallar, ioniklar – <i>ionik va korinf orderlaridagi kapitel va karnizlardagi tuxumsimon qavariq ko`rinishidagi naqshlar. Yonma-yon joylashtirilgan qush tuxumiga o`xshash naqshlar qatori birgalikda gorizonyal tasma hosil qiladi.</i></p>	<p>Ionian</p>
	<p>Ордера архитектурные</p>	<p>Arxitektura orderlari – <i>tirgak-xarili konstruksiyalarning tektonik qonuniyatlarini (ko`taruvchi va ko`tarilib turadigan qismlarining nisbati) ifodalovchi konstruktiv, kompozitsion va naqqoshlik usullari tizimi. Ko`taruvchi qismlar: kapitel, baza hamda tagkursidan iborat kolonna. Ko`tarilib turuvchi: birgalikda antablement tashkil qiluvchilar – arxiv, friz va karniz. Orderlarning klassik tizimi Qadimgi Gretsiyada shakllangan.</i></p>	<p>Order</p>
	<p>Оранжерея</p>	<p>Oranjereya (fransuzcha - apelsin) – <i>o`simliklarni o`stirishga mo`ljallangan oynalangan bino (xona). Dastlabki davrlarda boshqa joydan keltirilib, shu joyga xos bo`lmagan o`simliklar parvarishlangan.</i></p>	<p>Greenhouse</p>
	<p>Орнамент</p>	<p>Naqsh, ornament (lotincha - bezak) – <i>arxitektura inshootlarini bezash uchun ritmik tartiblashtirilgan elementlardan tuzilgan bezak, naqsh. Naqshlar bezash, qismlarga ajratish, xoshiyalash va sirtlarni to`ldirish maqsadlarida qo`llaniladi.</i></p>	<p>Ornament</p>





	<p>Павильон</p>	<p>Pavilion – 1) yengil tipdagi tabiat bilan bog`lab bezatilgan yoki maxsus jihozlangan bino; 2) saroy binosining alohida tomli qismi; 3) ko`rgazma ekspozitsiyalari, kinotasvirga olish va savdo-sotiq ishlariga mo`ljallangan imorat.</p>	<p>Pavilion</p>
	<p>Пагода</p>	<p>Pagoda (budda dini ibodatxonasi) – budda dinining memorial inshooti va diniy nuqtai nazardan tabarruk narsalar saqlanadigan joy. Pagodalar eramizning boshlarida Xitoyda paydo bo`lgan, Koreya, Yaponiya va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida uchraydi. Plani kvadrat yoki 6-8 va 12 burchakli pavilon yoki minora (ko`p hollarda ko`p yarusli) shakliga bunyod qilinadi. Qurilish materiallari sifatida yog`och, tosh, g`isht, metal ishlatiladi.</p>	<p>Pagoda</p>
	<p>Пальметта</p>	<p>Palmetta (fransuzcha – palma) – haykaltaroshlik yoki tasviriy san`atdagi stillashtirilgan palma barglari korinishidagi naqshli mavzu. Arxitektura detallari (friz, tokcha, karniz)ni bezashda qo`llaniladi.</p>	<p>Palmette</p>
	<p>Пандус</p>	<p>Pandus – binolarga kiraverishdagi yuqoriga chiqish yoki pastga tushish, yoki ko`p yarusli garajlarda avtomobillarning ko`tarilishi uchun imkon beragigan qiya sirt, nishab yo`lka. Panduslar jamoat va sanoat binolarida, transport inshootlarida va garajlarda ko`p qurilsdi.</p>	<p>Rampant</p>





	<p>Панель</p>	<p>Panei – 1) xona devorining pastki qismini yog`och bilan qoplash yoki bo`yash (dastlabki davrlarda – yog`ochga o`xshatib); 2) qurilish konstruksiyasining zavod sharoitida tayyorlangan yirik o`lchamli tekis elementi. Sendvich va konstruktiv panellar bo`ladi. Sendvich panellar issiqlikdan muhofazalovchi o`zak (mineral momiq, penopolistirol va penopoliuretan)dan tayyorlanadi. Sendvich panellarning tashqi va ichki sirtlari odatda po`lat, alyuminiy yoki plastmassa listlardan bajariladi. Konstruktiv panel konstruksiyaning tekis elementi bo`lib, uning qalinligi uzunligi va eniga nisbatan kichik bo`ladi; konstruktiv panelning o`lchamlari binoni planlashtirish parametrlari (ko`tarib turuvchi konstruksiyalarning qadami, xonalarning o`lchamlari va qavatning balandligi) bilan aniqlanadi. Zamonaviy yig`ma qurilishda konstruktiv panellar tashqi va ichki devorlarda, pardevorlarda, orayopma va yopmalarga, shuningdek maxsus (santexnik, sokol va h.) qurilish ishlarida qo`llaniladi.</p>	<p>Pavement</p>
	<p>Панно</p>	<p>Panno – rasm, naqsh yoki haykaltaroshlik tasvirlari bilan bezatilib, hoshiyalangan devorning bir qismi. Yog`och o`ymakorligi, ganchkorlik va mozaikadan tuzilgan kompozitsiyali pannolar ham bo`ladi.</p>	<p>Panel</p>





	<p>Пантеон</p>	<p>Panteon – 1) yunon va rimliklarda barcha xudolarga atab eramizning taxminan 125 yillarida qurilgan ibodatxona; 2) mashhur kishilar dafn etiladigan bino, daxma; 3) biror dinga mansub boʻlgan barcha xudolarning umumiy nomi. Panteonlar odatda ibodatxonalarda va diniy marosimlarga moʻljallangan inshootlarda joylashtiriladi (Vestminster abbatligi, Parijdagi Panteon).</p>	<p>Pantheon</p>
	<p>Парапет</p>	<p>Parapet, panjara – tom, ayvon, balkon yoki koʻprik boʻylab oʻrnatilgan toʻsiq, suyanchiq yoki baland boʻlmagan yaxlit devor.</p>	<p>Parapet</p>
	<p>Партер</p>	<p>Parter – 1) tomosha zalining pastki qismidagi oʻrinlar; 2) kurashda – polvonning qoʻllarini yerga yoki gilamga tirab turish holati; 3) bogʻ-xiyobon sanʼatida bogʻ yoki xiyobonning gulzor, suv havzalari, butalardan tiklangan bordyurlar, baʼzan haykallar va fontanlar bilan bezatilgan qismi.</p>	<p>Parterre</p>
	<p>Пассаж</p>	<p>Passaj, rasta, tim – savdo-sotiq (baʼzan - amaliy) ishlariga moʻljallangan bino turi. Passaj shisha yopmali boʻlib, magazinlar va idora xonalari keng qilib olingan oʻtish joyining ikki tarafidagi yaruslarda joylashadi. Passajlar koʻproq Yevropada XIX asrning ikkinchi yarmida qurilgan. Bojxona nazorati va savdogarlardan boj yigʻish uchun shahardagi savdo-sotiqni beilgilangan bir joyda jamlash maqsadida passajlar qurilgan.</p>	<p>Passage</p>





	<p>Патио</p>	<p>Patio – galereyalar bilan o`raglan ichkarigi ochiq hovli. O`rta yer dengizi mamlakatlari va Lotin Amerikasida keng tarqalgan. Patio dastlab Rim imperiyasi davrida amaldorlar va shaharliklar turar-joylarida landshaft dizayni sifatida qo`llanilib boshlangan.</p>	<p>Patio</p>
	<p>Периптер</p>	<p>Peripter – arxaika va klassika davrlaridagi qadimgi grek ibodatxonalarining asosiy turi. Plani to`g`ri to`rtburchak shaklidagi va to`rt tomonidan kolonnadalar bilan o`rab olingan bino. Peripterning tashqi ko`rinishi klassika arxitekturasida ko`p foydalanilgan.</p>	<p>Peripteral</p>
	<p>Перистиль</p>	<p>Peristil – to`rtta tomoni yopiq kolonnada bilan o`rab olingan to`g`ri to`rtburchak shaklidagi hovli va bog`, maydon, zal. Peristil qadimgi greklarning turar-joy va jamoat binolarining tarkibiy qismi sifatida eramizdan avvalgi IV asrdan ma`lum bo`lgan. Ellinizm va Qadimgi Rim san`atida keng ommalashgan.</p>	<p>Peristyle</p>
	<p>Пилон</p>	<p>Pilon – 1) arka, orayopma va ko`priklarda tirgak vazifasini bajaradigan yoki kirish va chiqishning ikki tarafida turgan yirik ustunlar; 2) qadimgi Misr ibodatxonalariga kirishning ikki tarafiga tiklangan, releflar bilan bezalgan trapetsiyasimon fasadli minorasimon inshoot.</p>	<p>Pylon</p>





	Пирамида	<p>Piramida – <i>piramida shaklidagi (baʼzan pogʻonali yoki minorasimon) monumental inshoot. Qadimgi Misr firavnlari dafn qilishda foydalanilgan piramidalar (Gizadagi Xeops piramidasi, eramizdan avvalgi XXVIII asr, va h.) toshdan tiklangan piramida shaklidagi ulkan inshootlardir. Piramida grekcha soʻz boʻlib koʻpyoqlik manosini bildiradi. Nisrda hozirgacha 118 ta piramida topilgan. Markaziy va Janubiy Amerikada ham eramizdan ming yil avval tiklangan piramida tipidagi inshootlar topilgan.</i></p>	Pyramid
	План в архитектуре	<p>Arxitekturada plan – <i>binolar kompleksini, aholi yashaydigan joy yoki uning alohida qismi gorizontal proyeksiyasining belgilangan mashtabda bajarilgan grafik tasviri. Planda devorlar, tayanchlar va orayopmalarning konstruksiyalari, interyerda mebellarning joylashtirilishi, asbob-uskunalarining joylashishi va ishlab chiqarish xonalaridagi texnologik jarayon, hududning koʻkalamzorlashtirilishi, shahardagi transport tarmoqlarining sxemasi kabilar ham koʻrsatilishi mumkin.</i></p>	Proposition
	Плафон	<p>Plafon – <i>1) biror xonaning ixtiyoriy (tekis, qubba, gumbaz) koʻrinishdagi ship (tom)i. plafonga tasviriy sanʼat yoki naqqoshlikda bajarilgan bezaklar ham “plafon” atamasi bilan belgilanadi. Tasviriy sanʼat plafonlari bevosita suvoqning oʻziga, shipga mahkamlangan xolstda, mozaika yoki boshqa uslublarda bajarilishi mumkin; 2) shipga yoki devorga oʻrnatiladigan lampa qopqogʻining bir turi.</i></p>	Plafond
	Портал	<p>Portal, peshtoq, ravoq – <i>binoning arxitekturaviy bezalgan kirish qismi. Antik davr uchun tekis tepadonlar, qadimgi Vavilohda arkali, Sharq oʻrta asr arxitektursida – peshtoq portallar ommalashgan.</i></p>	Gantry






	<p>Портик</p>	<p>Portik – katta binoga tutashtirib solingan kolonnali peshayvon. Portiklarning orderly shakli Gretsiya va Rim antik arxitekturasida paydo bo`lib rivojlandi va keyinchalik klassik arxitekturada keng qo`llanildi.</p>	<p>Portico</p>
	<p>Постамент</p>	<p>Postament, asos, tagkursi – haykaltaroshlik mahsuloti, kolonna kabilarning arxitekturaviy asosi (ostki qismi); dastgohli haykaltaroshlik asarlari o`rnatilgan tagkursi.</p>	<p>Plinth</p>
	<p>Пилястра, пилястр</p>	<p>Pilyastra – devor yoki ustun sirtidagi tekis vertikal chiqiq. Kolonnadagi qismlar (stvol, kapitel, baza) va proporsiyalardan iborat bo`ladi. Order arxitekturasida devorni qismlarga ajratadigan bezak elementi sifatida kring qo`llanilgan. Pilyastra ba`zan devorni konstruktiv kuchaytirishga xizmat qiladi.</p>	<p>Pilaster</p>
	<p>Пропорции</p>	<p>Proporsiyalar – binu yoki ancaml badiiy obrazi uyg`unligini ta`minlashga ko`maklashadigan asosiy arxitektura vositalaridan biri. Arxitekturaviy shakl va uning qismlari o`lchamlarining nisbati qonuniyatlarini o`rganadi.</p>	<p>Proportion</p>





	<p>Простиль</p>	<p>Prostil – <i>antik ibodatxona turi. Asosiy fasaddagi kolonnalar yonidagi plani to`g`ri yo`rtburchak shaklidagi katta bo`lmagan bino. Binoning asosiy fasadidan chiqib turgan portik ham prostil deb ataladi.</i></p>	<p>Prostyle</p>
	<p>Разрез архитектурный</p>	<p>Arxitekturaviy qirqim – <i>bino yoki arxitektura detalining tekislik bilan shartli kesilganda hosil bo`lgan frontal proyeksiyasi. Arxitektura detallari, hajm yoki ichki fazoni chizmada shartli tasvirlash uchun xizmat qiladi.</i></p>	<p>Architectural sectional drawing</p>
	<p>Ратуша</p>	<p>Ratusha – <i>ba`zi Yevropa davlatlarida shahar boshqarmasining binosi. Ratusha XII-XIV asrlarda shakllanib odatda ikki qavatli bin obo`lib, ikkinchi qavatida majlislar zali joylashgan, balkon hamda ko`p yarusli kichkina ibodatxonasi bo`lgan. Sobiq Ittifoq davlatlaridan Ukraina va Belorussiyaning g`arbiy oblastlari hamda Boltiqbo`yi davlatlarida qurilgan.</i></p>	<p>Town (city) hall</p>
	<p>РАЦИОНАЛИЗМ (в архитектуре)</p>	<p>Ratsionalizm (arxitekturada) – <i>XX asrning birinchi yarmida chet el arxitekturasida funksionalizmga yaqin bo`lgan yo`nalishlar jamlanmasi. Ratsionalizm XX asrning 20-yillarida fan va texnikaning yangi yutuqlaridan arxitekturada foydalanish, hamda arxitekturadan jamiyatni qayta qurish vositasi sifatida foydalanishga intilish natijasida dunyoga kelgan.</i></p>	<p>Rationality</p>





	Ренессанс	<p>Renessans – o`rta asr madaniyatidan yangi davr madaniyatiga o`tish davri, G`arbiy va Sharqiy Yvropadagi qator davlatlarning rivojlanish davri. Renessans arxitekturasi rivojlanishida antik orderlari merosini o`rganish va qator nazariy muammolarning hal etilishi (nisbatlar, perspektiva haqidagi ta`limot va h.) katta ahamiyatga ega bo`ldi. XVI asrning oxiridan Yevropa san`atida renessans stili barokko stili bilan almashgan.</p>	The Renaissance
	Роза	<p>Roza – XII-XV asrlarda poman va gotik uslublarda tiklangan binolardagi dumaloq deraza. Deraza markazdagi aylanachadan chiquvchi radial nurlar shaklidagi tosh panjara bilan qoplangan. Gotik binolarning cho`qqili derazalarini qoplagan bezakning shunga o`xshash turi ham roza deb ataladi.</p>	Catherine-wheel
	Рококо	<p>Rokoko – XVIII asrning birinchi yarmida Fransiyada paydo bo`lib Yevropaga tarqalgan arxitektura va amaliy san`atdagi stil. Rokoko uchun bezaklarning ko`pligi, shaklning antiqa naqshinkorligi, bo`rttirilgan asimmetriklik va murakkab egri-bugri chiziqlar xarakterlidir. Binolarning interyerlarida o`ta naqshinkor ramkalarga joylangan manzarali pannolar, chig`anoqlar, toshoynalar ko`p ishlatilgan;</p>	Rococo
	Романский стиль	<p>Roman uslubi (stili) – X-XIII asr feodalizm davri garbiy Yevropa san`atidagi uslub. Mahobatli arxitekturada ibodatxonalar, monastirlar, qo`rg`onlar asosiy o`rinni egallagan. Gumbazli va arkali konstruksiyaloh keng tarqalgan.</p>	Romanesque





	<p>Ротонда</p>	<p>Rotunda – doira yoki yarim doira shaklidagi gumbazli bino (ibodatxona, mavzoley, pavilion, zal). Ko`pincha rotondalarning perimetri boyicha kolonnalar joylashtiriladi. Qadimgi grek tolos va monopterlari, ayrim qadimgi Rim ibodatxonalari (masalan, Panteon) va mavzoleylar potonda shakliga ega. XVIII asrdan boshlab xiyobonlardagi pavilion va shiyponchalar potonda shaklida bunyod qilib boshlangan.</p>	<p>Rotunda</p>
	<p>Руина</p>	<p>Xaroba, qoldiq – arxeologik va tarixiy yodgorlik bo`lgan biror inshoot yoki aholi punktining qolqiqlari, xarobalar. Rasmda Janbas-qala qoldiqlari tasvirlangan</p>	<p>Ruin</p>
	<p>Руст, рустовка, рустик</p>	<p>Rustic – devorga relefli g`isht terish uoki dag`al ishlov berilgan yoki bo`rtma sirtli toshlar (rustlar) bilan sevorni qoplash. Devor sirtida yorug`lik o`yinlari hosil qilib, rustika binodan qudrat va salmoqdorlik taasurotini hosil qiladi. Binoga suvoq bilan pardoz berishda fasadni to`g`ri to`rtburchaklar va tasmalarga bo`lib rustikaga o`xshatiladi.</p>	<p>Rustic</p>
	<p>Саман, адоба</p>	<p>Somon, adoba – somon yoki boshqa tolali materiallar (zig`ir, kanop, bug`doy to`poni va shu rfdi o`simliklar o`zagi) qo`shib loydan qilingan xom g`isht. Eramizdan avvalgi V-IV asrlardan boshlab o`rmonsiz hududlarda keng tarqalgan. Hozirgi davrda Osiyo davlatlarida kam qavatli binolarni tiklashda ishlatiladi.</p>	<p>Adobe, airbrick</p>





	<p>Сандрик</p>	<p>Sandrik – bino fasadida (bazan interyerda) deraza yoki eshik o`rnining tepasida joylashgan katta bo`lmagan karniz ko`rinishidagi bezakli arxitektura detail. Bazan sandrik tosinning devordan chiqib turgan qismiga tayanib, fronton bilan yakunlanadi.</p>	<p>Canopy</p>
	<p>Свод</p>	<p>Gumbaz, qubba – geometric shakli bo`rtma egri chiziqli sirdan hosil bo`lgan, bino va inshootlarda orayopma yoki yopma sifatida qo`llaniladigan fazoviy konstruksiya. Eramizdan avvalgi 4-3 ming yilliklarda Misr va Mesopotamiyada silindrik gumbazlar paydo bo`lib, keyinchalik Qadimgi Rim arxitekturasuvida qo`llanilib boshlangan. Ozarbayjon, Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqda cho`qqili gumbazlar ko`proq tarqalgan. XX asrda katta prolyot (oraliq)li bin ova inshootlarni yopishga mo`ljallangan murakkab konstruksiyali gumbazlar paydo bo`ldi.</p>	<p>Fornication</p>
	<p>Сграффито</p>	<p>Sgraffito – devorga bezakli pardoz berish usuli. Unda rasm (naqsh) suvoqning ustki qatlamiga tirnab bajariladi va boshqa rangdagi pastki qatlam ochiladi.</p>	<p>Sgraffito</p>
	<p>Сень</p>	<p>Sen, panoh – arxitekturada - mehrob, quduq, taxt ustiga ustun yoki kolonnalarga o`rnatiladigan chodir, shiypon, soyabon; minoraning uchi.</p>	<p>Umbrage</p>





	<p>Синагога</p>	<p>Sinagoga – iudaizmdagi dindorlar jamoasi va ibodatxonaning nomlanishi. Arxitekturaviy turlari ko`p bo`lishi bilan birgalikda ular uchun umumiy bo`lgan jihatlari: planning to`g`ri to`rtburchak shaklidaligi, uch-besh neflarga bo`linishi, sharqiy devorda “Nuh kemasi vasiyati” va uning oldida muqaddas matnlarni o`qish uchun supacha joylashadi.</p>	<p>Synagogue</p>
	<p>Склеп</p>	<p>Daxma, yer ostidagi sag`ana – marhumni yer sathidan pastga dafn qilish maqsadida cherkov joylashgan yerning ostiga qabristonda qurilgan sag`ana.</p>	<p>Charnel house</p>
	<p>Собор</p>	<p>Sobor, bosh cherkov – oliy maratabali ruhoniy (patriarx, arxiyepiskop va h.) ibodat qiladigan, shahar yoki monastirning bosh ibodatxonasi. Sobor arxitekturasi odatda shakllarining monumentallaigi bilan farqlanib, hukmron arxitektura stilining asosiy yo`nalishlarini o`zida aks ettiradi.</p>	<p>Convocation</p>
	<p>Тамбур</p>	<p>Tanbur, peshayvon, dahliz – uying tashqi eshigiga yonmayon qurilgan kichkina xona, yoki tashqi eshik ortidagi o`tish joyi. Uyni shamol va sovuqdan himoya qiladi.</p>	<p>Tambour</p>
	<p>Театр</p>	<p>Teatr – teatr tomoshalariga mo`ljallangan arxitekturaviy inshootning bir turi. Biirnchi teatr binolari eramizdan avvalgi VI asrda Qadimgi Gretsiyada paydo bo`lgan deb taxmin qilinadi. Ular ochiq bo`lib, sahna, tomoshabinlar uchun o`rindiqlar, kiyinish xonasi va teatr rekvizitlarini saqlash xonasidan iborat bo`lgan. Rasmda Sidneydagi opera teatri binosi tasvirlangan.</p>	<p>Theatre</p>






	<p>Терраса</p>	<p>Ayvon, peshayvon – <i>binoga taqab qurilgan, uchta tomoni ochiq, isitilmaydigan yozgi imorat. Daryo bo`yidagi supasimon, pog`ona-pog`ona tekis maydonlarga ham yerrasa deyiladi.</i></p>	<p>Terrace</p>
	<p>Тимпан</p>	<p>Timpan – <i>bimo fasadining uchburchak shaklidagi tomchasi bo`lgan tepa qismi – fronton; deraza yoki eshik tepasida yarim aylana, uchburchak yoki cho`qqili shakldagi devordagi tokcha, o`yiq. Ko`pincha timpanda haykal, gerb, manzarali tasvir kabilar joylashtiriladi. Rasmda Shartrdagi Notr Dam soborining timpani tasvirlangan.</i></p>	<p>Tympan</p>
	<p>Торговые ряды</p>	<p>Savdo qatorlari – <i>arkada yoki kolonnalar galereyasiga ega bo`lgan, savdoga mo`ljallab qurilgan uzun bino. G`arbiy Yevropada XIII-XV asrlarda, Rossiyada XVII-XIX asrlarda qurilgan.</i></p>	<p>Shopping arcade</p>
	<p>Торговый центр</p>	<p>Savdo markazi – <i>magazinlar va maishiy xizmat ko`rsatish korxonolari joylashgan binolar kompleksi. Rasmda Mexikodagi Pedregal savdo markazining loyihasi tasvirlangan. Zamonaviy savdo markazlari – shahardagi banklar, eng yirik mehmonxonalar, savdo firmalari, davlat idoralari, gazeta va jurnallarning tahririyatlari, teatr va kinolar jamlangan markaz. Savdo markazi – shaharning moliyaviy, siyosiy va madaniy markazi bo`lib, hayot qaynagan joyi hisoblanadi.</i></p>	<p>Shopping centre</p>

	<p>Тосканский ордер</p>	<p>Toskan orderi – <i>dorida orderining soddalashtirilgan varianti. Eramizning boshlarida Qadimgi Rimda dunyoga kelgan. Kannelyurasiz bazali kolonna va silliq frizdan tuzilgan.</i></p>	<p>Tuscan order</p>
	<p>Триклиний</p>	<p>Trikliniy – <i>Qadimgi Rim arxitekturasida ovqatlanish xonasi. Shuningdek Qadimgi Rimda ovqatlanish stoli atrofiga taqa shaklida joylashtirilga loja ham trikliniy deb nomlangan.</i></p>	<p>Triclinium</p>
	<p>Тяга</p>	<p>Tyaga, tortish – <i>odanda suvoq qorishmasi yoki toshdan tayyorlangan gorizontaal yoki vertikal tasmacha, chiqiq. Bino devorlarini qismlarga bo`lishda yoki panno va shiplarni hoshiyalashda qo`llaniladi. Ko`pincha bir nechta oblomlardan iborat bo`ladi.</i></p>	<p>Sliding shaft</p>
	<p>Фасад</p>	<p>Fasad - <i>bino yoki inshootning tashqi tarafi. Imoratning konfiguratsiyasi (shakli) va o`rab olgan muhitga bog`liq holda bosh fasad, ko`cha fasadi, yon tomonlarning fasadlari, hovli fasadi, xiyobon va boshqa turdagi fasadlar bo`ladi. Inshootdan qanday maqsadlarda foydalanilishi, undagi stilistik, fazoviy va konstruktiv yechimlarning xususiyatlariga qarab fasadning proporsiyalari, tektonik va bezakli qismlarga ajratilishi belgilanadi.</i></p>	<p>Facade</p>





	<p>Фиал</p>	<p>Fial – gotik arxitekturada pinakllar, tomning tepa qirralari, kontrforslarni piramidalar, figurali nayzasimon uchlar, krestgullilar kabi bezakli bajarilishi. Bazan deraza va portallarning yon tomonlarida joylashtirilgan.</p>	<p>Vial</p>
	<p>Флигель</p>	<p>Fligel – asosiy yu yoniga qurilgan bino yoki shahar yoki qishloq qomleksi tarkibidagi, asosiy inshootni funksional va kompozitsion to`ldiruvchi ikkinchi darajali alohida tiklangan imorat. Rasmda “Arxangelsk” muzey-qo`rg`onining idora fligeli tasvirlangan.</p>	<p>Out-house</p>
	<p>Фонарь</p>	<p>Fonar, tomdagi oynali tuynuk, deraza va shu kabilar – 1) tabiiy yoritish uchun gimbaz yoki boshqa biror yopmagagi katta deraza o`rinlariga o`rnatilgan dumaloq yoki ko`pburchak shaklidagi inshoot; 2) bino devoridan 1-2 yoki undan ko`p qaavat balandligida turtib chiqqan shishalangan yoki qator derazalarga ega, erkeriga o`xshash qurilma; 3) tepadan yoritish maqsadida tom yopmasining shishalangan qismi.</p>	<p>Lantern, lantern light</p>
	<p>Фонтан</p>	<p>Fontan, favvora – tepaga otilib yoki pastga jildirab oqib turgan suvni saqlash va chegaralash uchun tiklangan arxitekturaviy inshoot. Fontanlar dastlab faqat ichimlik cuvi manbai sifatida qurilgan. Zamonaviy fontanlarga ko`pincha oqshom paytlarida pastdan elektrik yoritish va muzika sadolari yordamida bezak xarakteri beriladi.</p>	<p>Font</p>

	<p>Форум</p>	<p>Forum – <i>Qadimgi Rimda umumxalq yig`inlarini o`tkazish, ijtimoiy-siyosiy hayot markazi bo`lgan maydon. Bu yerda shaharga xomiylik qiladigan asosiy xudolarga bag`ishlab tiklangan ibodatxonalar, sud jarayonlari uchun bazilika (ichki qismi qator ustunlar bilan bir necha qismga bo`lingan bino)lar, senat majlislari yoki shahar boshqarmasi binolari joylashgan. Eramizdan avvalgi VI asrdan rivojlanib boshlagan forumlar imperator davriga kelib portiklar bilan xoshiyalangan va haykallar bilan bezatilgan dabdabali arxitektura ansambllariga aylangan.</i></p>	<p>Forum</p>
	<p>Фриз</p>	<p>Friz – <i>1) arxitektura orderlarida antablementning arxitrav va karniz orasidagi o`rta gorizontall qismi; 2) bino peshanasidagi, shuningdek, devor, gilam, xona poli sirtidagi keng naqshli yo`l, xoshiya.</i></p>	<p>Frisian, border</p>
	<p>ФРОНТОН</p>	<p>Fronton – <i>bino fasadining uchburchak shaklidagi tomchasi bo`lgan tepa qismi, shuningdek eshik, derazalar tepasidagi shu shaklda ishlangan bezak.</i></p>	<p>Fronton, frontispiece</p>
	<p>ХОЛЛ</p>	<p>Xoll – <i>o`rta asrlarning boshlarida ingliz-sakson sulolasi vakillari yig`iladigan ikki nishab tomli katta, baland xona; keyinchalik an`anaviy ingliz turar-joylaridagi umumiy xona, yuqori qavatlardagi zinapoyali kutish zali. Zamonaviy jamoat binolari va mehmonxonalarda dam olish, kutish va uchrashuvlarga mo`ljallangan katta bo`lmagan zal. Ba`zan ommaviy yig`ilishlar va konsertlar o`tkaziladigan zal xoll deb ataladi.</i></p>	<p>Lounge, vestibule</p>





	<p>Храм</p>	<p>Ibodatxona, butxona – <i>ibodat va diniy urf-odatlarni bajarishga mo'ljallangan inshoot. Ibodatxonalarning asosiy turlari (xristian cherkovlari, musulmonlarning masjidlari, yahudiy sinagoglari, budda ibodatxonalari) turli mamlakatlarda me'morchilikning rivojlanishiga mos ravishda o'zgarib, hozirgi davrda yorqin o'ziga xoslikka ega bo'lgan.</i></p>	<p>Temple</p>
	<p>Центрическое сооружение</p>	<p>Markazlashgan inshootlar – <i>asosiy xona (planda – dumaloq, kvadratsimon yoki ko'pburchak) markazidagi vertikal o'qqa nisbatan simmetrik imorat. Markazlashgan inshootlar har xil maqsadlarga mo'ljallanib tiklanishi mumkin. Markazlashgan inshootlar O'rta va Uzoq Sharqda, Garbiy va Sharqiy Yevropa davlatlarida tiklangan ibodatxonalarda ko'p uchraydi.</i></p>	<p>Centric framing</p>
	<p>Церковь</p>	<p>Cherkov, butxona – <i>xristianlarning diniy imorati. Rusdagi dastlabki cherkovlar Kiyev, Novgorod va Vladimirda toshdan tiklangan. Cherkovlarni ochiq galereya – sayilgohlar bilan o'rab olinishi, baland poydevor ustiga tiklanishi ulardagi yangi o'zgarishlar hisoblanadi.</i></p>	<p>Church</p>
	<p>Цитадель</p>	<p>Tsitadel – <i>qal'a ichidagi mustaqil himoyalanihga mo'ljallangan qudratli qal'a, feodal shaharning mustahkamlangan asosiy o'zagi. Shaharning ma'muriy va madaniy markazi bo'lib xizmat qilgan. Rasmda Buxorodagi Ark tsidateli tasvirlangan.</i></p>	<p>Citadel</p>





	<p>Цоколь</p>	<p>Sokol – bino, inshoot, yodgorlik, kolonna kabilarning ustki qismiga nisbatan qalinroq bo`lgan pastki, poydevordan tepada joylashgan qismi. Bezakli qoplamalar bilan qoplanishi mumkin.</p>	<p>Basement</p>
	<p>Часовня</p>	<p>Kichkina ibodatxona – mehrobsiz kichik butxona. Ularda ibodat qilinadi, lekin liturgiya amallari bajarilmaydi. Shaharlarda, qishloqlarda, yo`l chekkalari va qabristonlarda pravoslav kichik ibodatxonalari alohida bino shaklida tiklanadi. Yodgorlik sifatida shahar, qishloq, qabristonlarda, boy oilalarda o`rnatilgan. Rasmda Rossiyaning geografik markaziga o`rnatilgan kichkina ibodatxona tasvirlangan.</p>	<p>Chapel</p>
	<p>Шатер, шатровое покрытие</p>	<p>Chodir, shatyor – to`rt, olti yoki sakkiz qirrali piramida shaklidagi baland tom.</p>	<p>Tent</p>
	<p>Шпиль</p>	<p>Shpil – gumbaz, minora, tom kabilarning piramida yoki konus shaklida nayzasimon ishlangan usti, uchi. Tepasiga odatda bayroq, haykaltaroshlik yoki o`yma tasvir o`rnatiladi.</p>	<p>Spire</p>
	<p>Эркер, фонарь</p>	<p>Erker – bino devoridagi yarim aylana, uchburchak yoki ko`pburchak shaklidagi chiqiq. Ko`p hollarda bir necha qavat balandligida, ba`zan fasadning butun balandligida (odatda birinchi qavatdan tashqari) tiklanadi. Uchki xonalarning yuzasini kattalashtirib, ularning yoritilishi va insolyatsiyasini yaxshilaydi.</p>	<p>Bay-window</p>





QURILISH CHIZMACHILIGI






	<p>Абразивные материалы</p>	<p>Abraziv materiallar – qattiq tog` jinslari va minerallar (tabiiy va sun`iy). Metal, qotishma, tog` jinslari, shisha, qimmatbaho toshlar kabilarga ishlov berishda qo`llaniladi.</p>	<p>Abrasive articles</p>
	<p>Абразивный инструмент</p>	<p>Abraziv asbob – abraziv materiallardan tayyorlangan asboblar. Abrazib asbob charxtosh, qayroq, tasma shakllarida ishlab chiqariladi.</p>	<p>Abrasive tool</p>
	<p>Автоклавные материалы</p>	<p>Avtoklav materiallar – ohak, sement va anorganik to`ldirgichlardan iborat avtoklav (narsalarni yuqori bosim ostida qizdirish uchun ishlatiladigan germetik qopqoqli idish)da ishlov berilgan qurilish materiallari (masalan, silikat g`isht, g`ovak beton). Avtoklav materiallarga 175-200°C da suv bug`i bilan to`yintirilgan 0,9-1,6 MPa bosimda 8-16 soat davomida issiq-namli ishlov beriladi.</p>	<p>Autoclave materials</p>
	<p>Адгезия</p>	<p>Adgeziya – sirtlari bir-biriga tegib turgan har xil qattiq yoki suyuq moddalar molekulalarining o`zaro ta`siri ostida yopishib qolishi.</p>	<p>Adhesion</p>






	<p>Акустические</p>	<p>Akustik materiallar – shovqinlarni yutish (ovoz yutgich) yoki</p>	<p>Acoustic</p>
--	---------------------	--	-----------------






	<p>материалы</p>	<p><i>tashqaridan tovushlarning kirishidan himoyalash (shovqindan muhofazalash) maqsadida qo`llaniladigan materiallar. Ovoz yutkich materiallar mineral momiq yoki shisha tolalari asosida to`shak, o`ram, plitalar shaklida tayyorlanadi. Yumshoq akustik materiallar qattiq ekranlar (alyuminiy, asbestosement va h.) bilan birgalikda qo`llaniladi. Yarim qattiq akustik materiallarni tashqi tarafidan shishamato, g`ovak bo`yoq yoki plyonka qoplanadi. Shovqindan muhofazalash qistirma materiallari suniy tolalardan (mineral momiq va shisha tolali o`ramlar va plitalar), shuningdek, gaz to`ldirilgan elastik plastmassalar (penopoliuretan, penopolivinilxlorid va h.)lardan tayyorlanadi. Shovqindan muhofazalashda quyma yoki g`alvirak rezina (gubka) lar ham ishlatiladi.</i></p>	<p>materials</p>
	<p>Алебастр</p>	<p><i>Alebastr, ganch – qurilish gipsi (mineral va undan tayyorlangan qurilish material) ning nomlanishi. Tabiiy gipsni 120-170 °C haroratda pishirib olingan mahsulot. Qurilishda alebastr mayda kukun ko`rinishida qo`llaniladi.</i></p>	<p>Alabaster</p>
	<p>Аллея</p>	<p><i>Alleya, xiyobon – keng ko`chaning o`rtasida maxsus o`rnatilgan daraxtlar va butalar bilan obodonlashtirilgan hudud, xiyobon. Shaharlarni ko`kalamzorlashtirishda muhim ahamiyatga ega.</i></p>	<p>Alley, avenue</p>
	<p>Анкер</p>	<p><i>Anker – biror konstruksiya yoki qurilmani qo`zg`almaydigan qilib mahkamlaydigan uzun bolt yoki skoba, mahkamlovchi qurilma. Qurilish konstruksiyalaridagi kuchlanishlarni zaminga uzatishga xizmat qiladi.</i></p>	<p>Anchor, anker</p>






	<p>Анкерная плита</p>	<p>Anker plitasi – poydevor asosiga joylashtirilib, anker boltini o`rnatishga mo`ljallangan metall plita. Anker plitalari metall va temir-beton tayanchlarni gruntga mahkamlashda tortqi vazifasini bajaradi. Eng zarur vazifalari: ankerlarni mahkamlash, tortqilarni montaj qilish. Tayanchning kuchlanishlarga chidamliligi, konstruksiyaning ishonchliligi va chidamliligi tayanch anker plitaga bog`liq.</p>	<p>Holdfast, tie-plate</p>
	<p>Аппарель</p>	<p>Apparel – 1) temir yo`l vagonlariga yuklarni ortish uchun vagon poli sathiga teng balandlikda qurilgan temir-beton yoki tosh yotqizilgan platforma. Apparelda unga boriladigan yo`lga tushish moslamasi (pandus) o`rnatilgan bo`ladi; 2) bino (inshoot) ga yurib yoki transportda boorishga qulay qiyalikdagi qisqa og`ma plita shaklidagi qurilma.</p>	<p>Approach ramp</p>
	<p>Арматура</p>	<p>Арматура, o`zak – 1) qurilish konstruksiyalari materialiga uzviy ravishda qo`shilgan elementlar, kuchaytirgichlar; 2) asosiy jihoz tarkibiga kirmaydigan, ammo uning normal faoliyati uchun zarur bo`lgan yordamchi qurilma va detallar (o`tkazish quvurlari, elektrotexnika tarmoqlari kabilar uchun zarur qismlar).</p>	<p>Fittings, armature</p>
	<p>Арматура железобетонных конструкций</p>	<p>Темir-beton konstruksiyalarning armaturalari – temir-beton konstruksiyalarning alralmas tarkibiy qismi (po`lat sterjen yoki simdan tayyorlanadi). Ishlatilish sohasiga qarab: cho`zilishga (ba`zan - siqilishga) ishlaydigan – ishchi (hisoblab aniqlanadigan); payvandlash yoki to`qish yordamida karkasdagi sterjenlarni biriktirib kuchlanishlarni teng taqsimlovchi (konstruktiv); montaj (yig`ish) va xomut turlariga bo`linadigan temir-beton ermaturalar bo`ladi.</p>	<p>Fitments</p>





	<p>Арматура трубопроводная</p>	<p>Truboprovod armaturasi – o`tkazgich quvurlari orqali tashiladigan suyuqlik va gazlarni o`tish yuzasini o`zgartirish bilan boshqarish va taqsimlash imkonini beradigan qurilma. Berkitadigan (kranlar, surma klapanlar), saqlovchi (klapanlar), boshqaruvchi (ventillar, bosimni boshqaruvchi - regulyatorlar), tarmoqlovchi, avariya holatidan ogohlantiruvchi turlardagi truboprovod armaturalari bo`ladi.</p>	<p>Pipeline fittings</p>
	<p>Армированные пластики</p>	<p>Armaturali plastiklar – tarkibida mustahkamlovchi to`ldirgichlar sifatida tolali materiallar: qiymalangan tolalar, jgut (chilvir)lar, matolar, qog`oz, yog`och shpon (bir qavatli yupqa fanera)lari bo`lgan plastiklar. Shisha plastik, tekstolit, uglerodoplast kabilar armaturali plastiklarga kiradi.</p>	<p>Reinforced plastics</p>
	<p>Армоцемент</p>	<p>Armoement – po`lat to`r (setka)lar bilan armaturalangan mayda donali beton. Bir vaqtning o`zida sterjenli yoki simli armaturasi ham bo`lishi mumkin. Armoementdan yupqa devorli elementlar (daryo va dengiz kemalari, debarkader (platforma)lar, rezervuarlar, quvurlar) tayyorlash mumkin. Shuningdek murakkab shaklli, yupqa devorli qurilish konstruksiyalarini tayyorlashda ishlatiladi. Rasmda mayda donali armoementdan qurilgan uy tasvirlamgam,</p>	<p>Armocement</p>
	<p>Асбест (горный лен)</p>	<p>Asbest, toshpaxta (tog` zig`iri) – ingichka tolali agregatlar hosil qiluvchi minerallarning umumlashtirilgan nomlanishi. (Agregat – tog` jinsini tashkil etgan minerallar majmui). Asbestlar olovbardoshli, ishqor va kislotaga chidamli, issiqlik o`tkazmaydigan, dielektrik, plastmassa va asboementlarda to`ldirgich, olovbardosh va issiqlikdan muhofazalovchi mahsulotlar uchun material bo`lib xizmat qiladi.</p>	<p>Asbestos</p>






	<p>Асбоцемент</p>	<p>Asbosement – portlahdsement va asbest tolalarining qotishmasidan hosil bo`lgan material. Asbest tolalari asbosementni mustahkamlab, issiqlik o`tkazishini pasaytiradi. Asbosement tom yopish uchun ishlatiladigan materiallar va bosimsiz truboprovodlar tayyorlashda keng qo`llaniladi.</p>	<p>Asbestos cement</p>
	<p>Асфальт</p>	<p>Asphalt – bitumning (tabiiy asfaltda 50-60% va sun'iy asfaltda 13-60%) mineral moddalar (ohaktosh, qumtosh va h.) bilan aralashmasi. Qum, shag`al, yo`l va sanoat binolarining poli qurilishi shag`al toshi bilan aralashtirib namdan muhafazalovchi material sifatida qo`llaniladi.</p>	<p>Asphalt</p>
	<p>Асфальтирование</p>	<p>Asfaltlamoq, asphalt bilan qoplamoq – yo`l qoplamasining asphalt betonli qatlamlarini qayta qurish yoki ta'mirlash bo`yicha qurilish ishlari kompleksi</p>	<p>Asphalting</p>
	<p>Асфальтобетон</p>	<p>Asfaltobeton, asfaltli beton – bog`lovchi material sifatida bitum ishlatilgan beton. Asfaltobeton tarkibiga shuningdek mineral kukun, mayda va yirik to`ldirgich (shag`al va qum) ham kiradi. Asfaltobeton asosan yo`llar va sanoat binolarining pollarinin qoplashda ishlatiladi.</p>	<p>Asphalt concrete</p>
	<p>Аэрация воды</p>	<p>Suvning aeratsiyasi – suvning havodagi kislorod bilan to`yimtirilishi. Suv ta`minotidagi suv tozalash inshootlarida temir moddalarini cho`ktirish hamda suvdan karbonat kislota va vodorod sulfidni ajratish; oqar suvlarni biologik tozalash inshootlarida organik moddalar va boshqa bulg`ovchi moddalarni tozalash jarayonini tezlatish maqsadida o`tkaziladi.</p>	<p>Aerification</p>






	<p>Аэротенк</p>	<p>Aerotenk – oqar suvlarni suniy aeratsiya yordamida faol loyqa aralashtirib biologik tozalash inshooti.</p>	<p>Aerotank</p>
	<p>Аэротенк-отстойник</p>	<p>Aerotenk-tindirgich – aerotenk va tindirgich o`zaro to`g`ridan-to`g`ri texnologik aloqa qiladigan qilib birlashtirilgan inshoot.</p>	<p>Aerotank settler</p>
	<p>Аэротенк-смеситель</p>	<p>Aerotenk-aralashtirgich – oqar suv va faol loyqa koridorning bir tomonidan tekis yetkazib beriladigan hamda koridorning ikkinchi tomonidan chiqarib yuboriladigan aerotenk.</p>	<p>Aerotank mixer</p>
	<p>Аэрофильтр</p>	<p>Aerofiltr – majburiy ravishda shamollatuvchi qurilmasi bo`lgan biofiltr. Doctor Gupil tomonidan ixtiro qilingan havo tozalash apparatining nomi. Turar-joy xonalari havosida chang bilan aralashib uchib yurgan kasallik tarqatuvchi organizmlarni yo`qotishga mo`ljallangan.</p>	<p>Aerofilter</p>
	<p>Базальт</p>	<p>Bazalt – qoramtir rangli minerallar (piroksen, olivin), labrador va vulkanik shishadan tashkil topgan tog` jinsi. Yer qobig`ida keng tarqalgan tog` jinsi bo`lib, granitdan rastda joylashadi, granitdan qoramtir va og`irroq bo`ladi. Shag`al, ko`chaga yotqiziladigan toshlar tayyorlashda, eritilgan holda esa – tosh quyish uchun ishlatiladi.</p>	<p>Basalt</p>




	<p>Байпас</p>	<p>Baypas – tashiladigan muhit (suyuqlik, gaz)ni asosiy truboprovoddan ajratib olish va uni shu truboprovodga qaytadan uzatishga mo`ljallangan berkituvchi armaturasi bo`lgan aylanma truboprovod. Tizimni ta'mirlash ishlari davrida suv, bug`, gaz kabi moddalarni uzatishda uzilish bo`lmasligi uchun quriladi.</p>	<p>Loop-line</p>
	<p>Бак расширительный</p>	<p>Kengaytiradigan bak – suv bilan isitishning yopiq sistemasida suvni maksimal ishchi haroratgacha qizdirganda hosil bo`ladigan ortiqcha suvni qabul qilish rezervuari.</p>	<p>Overflow bottle</p>
	<p>Балка</p>	<p>Balka, to`sin – bin ova inshootlarning ikki yoki undan ko`p tayanch nuqtalari bo`lgan ko`tarib turuvchi gorizontal konstruksiyasi. Ikkita tayanchi bo`lib, bitta oraliq (prolyot)ni yopib turgan balka qirqma balka deyiladi. Bir nechta tayanch nuqtalari bo`lib, bir necha oraliqlarni yopadigan balka ko`p prolyotli, yaxlit balka deyiladi. Bino, ko`prik, estakada kabilarning konstruksiyalarida temir-beton, po`lat va yog`ochdan tayyorlangan balkalar qo`llaniladi.</p>	<p>Housing strut</p>
	<p>Балластный слой</p>	<p>Ballast qatlami – temit yo`l shpallari tagiga yotqiziladigan shag`al, maydalangan tosh, qum kabilar. Ballast qatlam shpallar uchun elastik asos hosil qilib, temir yo`l izining stabilligini hamda poyezdlarning tekis harakatini ta'minlaydi.</p>	<p>Ballast bed, track bed</p>
	<p>Башмак</p>	<p>Boshmoq – tayanch kolonnaning pastki qismi, unga tushadigan bosimni asosga tekis taqsimlashga xizmat qiladi. Qoziq (svaya) boshmog`i – qoziqning pastki uchiga kiygiziladigan po`lat uchlik.</p>	<p>Tappet</p>





	Бетон	Beton – toshsimon, sun'iy qurilish materiali. Bog'lovchi, to'ldiruvchi, berkituvchi va zarur qo'shimchalardan iborat bo'ladi. Ushbu qorishma qotguniga qadar beton qorishmasi deb ataladi. Organik bog'lovchi va organik to'ldiruvchilardan iborat materiallar betonlarga kiritilmaydi.	Concrete
	Битум	Bitum – uglevodorodlar va ularning kislorodli, oltingugurtli, azotli hosilalari (neft, gudron, asfalt va h.)ning suvda erimaydigan qattiq yoki suyuq qorishmalari. Yo'l qurilishida asosan asfalt ko'rinishida hamda elktro- va namdan muhofazalovchi (masalan, ruberoid) materiallar sifatida ishlatiladi.	Bitumen
	Благоустройство	Obodonlashtirish – biror hudud (territoriya)ni qurilish va belgilangan maqsadda foydalanishga yaroqli holga keltirish, aholi uchun sog'lom, qulay va madaniy sharoitlarni yaratish maqsadida bajariladigan ishlar hamda tadbirlar jamlanmasi.	Accomplishment
	Блок	Blok – tabiiy yoki sun'iy materiallar (ohaktosh, beton, shlakobeton va h.)dan tayyorlangan katta o'lchamli tosh. Ko'pincha prizmatik shaklda bo'ladi. Rasmda poydevor bloki tasvirlangan.	Block
	Блок объемный	Hajmli blok – turar-joy, jamoat yoki ishlab chiqarishga mo'ljallab qurilayotgan bino uchun hajmning oldindan tayyorlanadigan qismi (sanitar-texnik kabina, xona, kvartira, maishiy xona, transformatorli podstansiya va b.)	Volume block






	<p>Блок-секция</p>	<p>Blok-seksiya – binoning boshqa elementlari bilan birgalikda yoki alohida foydalanilishi mumkin boʻlgan, binoning hajmli-fazoviy, funksional mustaqil elementi.</p>	<p>Section block</p>
	<p>Бордюор</p>	<p>Bordyur, hoshiya – tasma, chekkalarni oʻrab turuvchi, jiyak, magʻiz; biror buyum chetlarining bezagi. Yoʻl qurilishida – yoʻlning transport vositalari qatnaydigan qismini yoʻl yoqasi va yoʻlka (trotuar) kabilardan ajratib turadigan bort toshlar. Bordyurlar faqat chegaralab qolmasdan yoʻlni buzilish va yuvilishdan saqlaydi, xavfsizlikni taʼminlaydi.</p>	<p>Border stone</p>
	<p>Брус</p>	<p>Брус – 1) qurilish mexanikasida – koʻndalang kesimining oʻlchamlari uzunligiga nisbatan kichik boʻlgan jism. Geometric oʻqning shakliga qarab yassi (toʻgʻri, siniq, egri) va fazoviy bruslar boʻladi. Egilishga ishlaydigan brus balka deyiladi; 2) yogʻochga ishlov berishda – tilingan (baʼzan tarashlangan) yogʻoch materiali. Qalinligi 100 mm dan kichik va eni ikki karra qalinligidan katta boʻlmagan brusga brusok deyiladi.</p>	<p>Beam</p>
	<p>Брусчатка</p>	<p>Брусчатка (koʻchaga yotqiziladigan chorqirra toshlar) – mustahkam togʻ jinslari (granit, diabaz, bazalt va b.)dan parallelepiped shakliga yaqin koʻrinishda yorib tayyorlangan yoʻl-qurilish materiali. Oʻlchamlari: uzunligi 15-30, eni 9-15, balandligi 9-16 sm atrofida boʻladi. Bruschatka tosh yorish mashinalarida tayyorlanib, keyinchalik yuza va yon tomonlari silliqatlanadi.</p>	<p>Sett</p>






	<p>Бункер</p>	<p>Bunker – <i>sochiluvchan, bo`lak-bo`lak, suyuluvchan (don, qum, ko`mir, ruda, beton, qorishma va b.) materialarni saqlashga mo`ljallangan maxsus idish. Yukning o`zi oqib tushishi uchun bunkerning pastki qismining devorlari qiya (masalan, to`ntarilgan kesik piramida yoki konus) ko`rinishda bajariladi va zatvor (ochib yopuvchi mexanizm) bilan jihozlanadi.</i></p>	<p>Bin</p>
	<p>Бут</p>	<p>Xarsangtosh – <i>granit, qalin ohaktosh, qumtosh kabi jinslarning qatlamini portlatishdan olinadigan qurilish toshi. Xarsangtosh poydevor, toshdevor kabilarni tiklashda qo`llaniladi.</i></p>	<p>Rubble</p>
	<p>Бутобетон</p>	<p>Butobeton, xarsangtoshli beton – <i>poydevor tiklashda ishlatiladigan material. Tosh, yirik shag`altosh, shag`al, g`isht siniqlari kabilar terib chiqilganidan keyin ustidan qorishma quyilib, yaxshilab zichlanadi.</i></p>	<p>Concrete rubble</p>
	<p>Вайма</p>	<p>Vayma – <i>yog`och mahsulotlar yoki ularning qismlarini yelimlab yig`ishda ishlatiladigan moslama yoki stanok. Eng sodda vayma qo`zg`aluvchan yoki qo`zg`almas tirgaklari bo`lgan metal ramadan tuziladi.</i></p>	<p>Clamp carrier, press</p>
	<p>Вантовые конструкции</p>	<p>Vantli konstruksiyalar – <i>maxsus sterjenlar (kanat (yo`g`on arqon)lar, bikir tayanchlar va bog`ichlar)ning cho`zilishga uyg`unlikda ishlashiga asoslangan osma ko`priklar, tom yopmalari kabilarning konstruksiyalari.</i></p>	<p>Design cable</p>






	<p>ВАНТЫ</p>	<p>Vantlar – <i>baland metal trubalar, radiomachtalar, shamol dvigatellarining minoralari kabilarni mahkamlash uchun tortqilar.</i></p>	<p>Cable</p>
	<p>Вата целлюлозная</p>	<p>Tsellyuloza momig`i – <i>yog`ochdan olingan tolasimon material. Makalaturadan tayyorlanadi. Ekomomiqning 80% i gazeta qog`ozidan, qolgan 20% i sog`lik uchun bezarar bo`lgan antiseptik va antipiren qo`shimchalardan iborat.</i></p>	<p>Cottonwool</p>
	<p>ВЕНТИЛЯЦИЯ</p>	<p>Ventillyatsiya, shamollatish – <i>xonalar (berk fazo)dagi boshqariladigan tabiiy yoki cun`iy havo almashuvi. Sanitariya-gigiyena va texnologik talablarga mos keladigan havo muhitini yaratishga xizmat qiladi.</i></p>	<p>Ventilation</p>
	<p>Веранда</p>	<p>Veranda, ayvon – <i>binoga qo`shib yoki taqab solingan, shuningdek binodan alohida yengil pavilion ko`rinishida tiklangan, isitilmaydigan ochiq yoki shishalangan imorat. Veranda ichida eshik qoladigan qilib, uying asosiy yoki yon tomon fasadi bo`ylab joylashtiriladi.</i></p>	<p>Piazza</p>
	<p>Вертикальный дренаж</p>	<p>Вертикальный дренаж, zovurlar yoki quvurlar sistemasi – <i>pastki qismiga filtr o`rnatilgan trubkasimon quduq. Undan chuqurlikda ishlaydigan nasoslar bilan yer osti suvlari tortib chiqarib tashlanadi. Trubkasimon quduqlar bir qatorga yoki kontur bo`ylab birlashtirilishi va markazlashgan nasos stansiyasidan xizmat ko`rsatilishi mumkin.</i></p>	<p>Vertical drain</p>






	<p>Верхолазные работы</p>	<p>Baland joylardagi ishlar – yer sirti, yopma yoki ishchi to`shamadan 5 m dan yuqori balandliklarda bajariladigan montaj yoki ta`mirlash ishlari. Bunda ishchilarni qulab tushishdan saqlaydigan asosiy vosita saqlovchi kamar bo`ladi.</p>	<p>Job spiderman</p>
	<p>Вестибюль</p>	<p>Vestibyul – keluvchilarni qabul qilish va taqsimlashga mo`ljallangan, binoning ichki qismiga kirish oldida joylashgan xona; jamoat binolarining bezatilgan kirish qismida joylashgan xona.</p>	<p>Antechamber</p>
	<p>Висячие конструкции</p>	<p>Osma konstruksiyalar – asosiy yuk ko`taruvchi elementlari (troslar, kabellar, to`rlar, zanjirlar, listlangan membranalar kabilar) faqat cho`zilishga ishlaydigan qurilish konstruksiyalari. Raspor (vertikal yo`nalishda ta`sir qiluvchi kuchning gorizontal yo`nalishda ta`sir qiladigan bosimi) va mahalliy kuchlanishlar ta`sirida deformatsiyalanishi osma konstruksiyalarning kamchiligi hisoblanadi. Yassi va fazoviy osma konstruksiyalar bo`ladi. Yassi osma konstruksiyalar osma ko`priklar, osma (kanat) yo`llar kabilarda, fazoviylari esa katta prolyotli jamoat va sanoat binolarining tom yopmalarida qo`llaniladi.</p>	<p>Pendant design</p>





	<p>Витраж</p>	<p>Vitraj – deraza yoki eshik o`rinlariga o`rnatilgan, yoki alohida ramkaga joylashtirilgan, shisha bo`laklari (ko`pinch har xil rangli)dan tayyorlangan bezakli kompozitsiya. Zamonaviy arxitekturada – metall ramkalarga mahkamlangan katta o`lchamli shishalar bilan fasadni keng ko`lamda shishalanishi.</p>	<p>Stained glass</p>
	<p>Влагостойкость</p>	<p>Namga chidamlilik – qurilish materiallarining davriy namlanib qurishi natijasida suvning yemiruvchi ta`siriga uzoq vaqt davomida qarshilik ko`rsatishi.</p>	<p>Humectancy</p>
	<p>Водозабор</p>	<p>Vodozabor (suv olish inshooti) – ochiq oqar suv, suv havzasi (daryo, ko`l, suv ombori) yoki yer osti manbalaridan suv olib, uni xo`jalik maqsadlarida (sug`orish, ichimlik suvy ta`minoti, elektr energiyasi ishlab chiqarish va b.) foydalanish uchun uzatishga mo`ljallangan gidrotexnik inshoot.</p>	<p>water-diverting structure</p>
	<p>Водоотлив</p>	<p>Suvni chiqarib tashlash – o`yilgan joy (kotlovan), karyer yoki yer osti yo`li, shaxta kabi qazilayotgan joylardan yer osti va ustidagi suvlarni chiqarib tashlashga mo`ljallangan tadbirlar hamda qurilmalar kompleksi.</p>	<p>Pumping</p>
	<p>Водоочистка</p>	<p>Suvni tozalash – suv ta`minoti manbasidan vodoprovodga yetkazib berilayotgan suvning sifati belgilangan normada bo`lishini ta`minlaydigan texnologik jarayonlar majmui.</p>	<p>Fresh water purification device</p>






	<p>Водопонижение</p>	<p>Suv sathining pasayishi – <i>grunt</i>dagi yer osti yoki uning bilan chegaradosh suv havzasidagi suvlarning sathini qurilish ishlari davrida drenaj qurilmalar, chuqurlikda ishlaydigan nasoslar, iglofiltr kabilardan foydalanib pasaytirish.</p>	<p>Water inlet</p>
	<p>Водоприемник</p>	<p>Suv olish qurilmasi – 1) ochiq (daryo, ko`l, suv omborlari) yoki yer osti manbasidan suvni bevosita qabul qilishga mo`ljallangan cuv olish inshootining bir qismi; 2) yon atrofdagi territoriyalardan meliorativ quritish sistemasida yig`iladigan suvni qabul qiluvchi va chiqarib tashlovchi ochiq suv oqimlari (daryo, kanal va b.), suv havzasi yoki jarlik.</p>	<p>Inlet</p>
	<p>Водопровод</p>	<p>Vodoprovod – tabiiy manbalardan suv olish, tozalash, istemolchilarga zarur miqdorda va talab qilingan sifatda yetkazib berishni amalga oshiradigan muhandislik inshootlari va qurilmalari.</p>	<p>Aqueduct</p>
	<p>Водостоки</p>	<p>Novlar, tarnoylar – suvni yig`ish, qabul qilish, olib ketish va chiqarib tashlashga mo`ljallangan inshoot, qurilma va moslamalar, shuningdek suv oqishi mumkin bo`lgan tabiiy va sun`iy qiya maydonchalar.</p>	<p>Drain</p>
	<p>Войлок строительный</p>	<p>Qurilish namati, kigizi – past navli jun, o`simlik tolasi va yelimdan tayyorlangan, issiqlikni o`tkazmaydigan o`ram (rulon) material. Truboprovod va turli xil jihozlarni issiqliknind yo`qolishiga yo`l qo`ymaslik uchun qurilish namati bilan muhafazalanadi. U shuningdek ship va devorlarni tovish va issiqlik izolyatsiyasida keng foydalaniladi.</p>	<p>Felt constructive</p>






	<p>Воздуховод</p>	<p>Havo o`tkazgich – <i>shamollatish, havo bilan isitish, sun'iy iqlim hosil qilish, shuningdek texnologik maqsadlarda havo tashish uchun truboprovod.</i></p>	<p>Ventilating flue</p>
	<p>Габарит</p>	<p>Gabarit – <i>konstruksiya, bino, inshoot, qurilma, transport vositalari kabilarning chegaraviy tashqi konturlari yoki o`lchamlari.</i></p>	<p>Size</p>
	<p>Газгольдер</p>	<p>Gazgolder – <i>gazni qabul qilish, saqlash va taqsimlash gazoprovodlari yoki qayta ishlash qurilmalariga tarqatishga mo`ljallangan po`lat idish. O`zgarmas va o`zgaruvchan hajmli gazgolderlar bo`ladi. Shaharlarda yuqori bosimli, o`zgarmas hajmli gazgolderlar ishlatiladi. Ular sferik tubli silindrik (uzunligi 17 m va diametri 3 m atrofida) yoki sharsimon (diametri 10 m atrofida) shaklda va 1,8 MPa bosimga mo`ljallangan bo`ladi.</i></p>	<p>Gas-bag</p>
	<p>Газобетон</p>	<p>Gazobeton, g`ovak beton – <i>gaz hosil qiluvchi (odatda alyuminiy kukuni)ni bog`lovchi (masalan, portlandsement), kvartslı qum, kimyoviy qo`shimcha va suvga qo`shib tayyorlanadigan g`ovak beton. Asosan binolarni o`rovchi konstruksiyalarni tayyorlashda ishlatiladi.</i></p>	<p>Aerated concrete</p>
	<p>Газовая резка</p>	<p>Gaz bilan kesish – <i>biror yonuvchan gaz (atsetilen, koks gazi)ning yoki suyuq materiallarning (kerosin, benzin) kislorodda yonishidan hosil bo`lgan alangada metallning erishiga asoslangan kislorodli kesish usuli.</i></p>	<p>Gas bluff</p>





	Газовая сварка	<p>Gaz bilan payvandlash – kislород va yonuvchan gaz aralashmasining yonishidan hosil bo`lgan alanga yordamida metall mahsulotlarni payvandlash usuli. Metallarning alanga bilan qizdirilgan birikish joyi elektrod bilan birgalikda erib (erish harorati 3000-3150 °C) payvandlash vannasini hosil qiladi.</p>	Gas welding
	Газоочистка	<p>Gaz tozalash – sanoat gazlari tarkibidagi qattiq, suyuq yoki gazssimon aralashmalarni ajratib olish teznologik jarayoni.</p>	Gas purifying
	Газопровод	<p>Gazoprovod, gaz quvuri – biror joydam istemolchilargacha yonuvchan gazlarni tashishga mo`ljallangan truboprovod, jihozlar va asbob-uskunalar kompleksi.</p>	Gas pipe line
	Газопровод магистральный	<p>Magistral (asosiy) gazoprovod – yonuvchan gazlarni ular qazib olinadigan yoki ishlab chiqariladigan joydan gaz taqsimlash stahsiyalarigacha yetkazib berish gazoprovodi. Magistral gazoprovodlarni yotqizish turlari: yer ostidan; yer ustidan – tayanchlarga o`rnatilgan holda; yer bag`irlab – to`kma ko`tarmalar bo`ylab. Dengiz ostidan olinadigan gazlar suv osti magistral gazoprovodlari orqali tashiladi.</p>	Arterial gas pipe line
	Газоснабжение	<p>Gaz ta`minoti – xalq xo`jaligi va aholi uchun gaz yoqilg`isini tartibli ravishda uzatish va taqsimlash.</p>	Gas content






	<p>Галерея</p>	<p>Galereya – 1) muhandislik va texnologik kommunikatsiyalarga mo'ljallangan binolarni, shuningdek kishilarning o'tishi uchun bino yoki inshoot xonalarini birlashtiruvchi, to'la yoki qisman berkitilgan inshoot; 2) teatr zalidagi yuqori qavat, tarus; 3) yer osti yo'li; 4) maxsus muzey.</p>	<p>Walkway</p>
	<p>Генеральный план</p>	<p>Bosh plan (genplan) – loyihaning qurilish obyektini rejalashtirish va obodonlashtirish, binolar, inshootlar, transport yo'llari, muhandislik tarmoqlari, xo'jalik va naishiy xizmat tizimi bilan bog'liq kompleks yechimlarini o'z ichiga olgan qismi.</p>	<p>General layout</p>
	<p>Герметики</p>	<p>Germetiklar – bino va inshootlarning konstruktiv elementlaridagi tutashuv va birikmalarning jips birikib, o'tkazmaydigan bo'lishini ya'minlash uchun qo'llaniladigan elastik yoki plastoelastik materiallar.</p>	<p>Luting composition</p>
	<p>Гибкие стропы</p>	<p>Egiluvchan arqonli ilgaklar – yengil kolonna, to'sin, plita, devor panellari, konteynerlar kabilarni ko'tarishda foydalaniladigan po'lat arqonli ilgaklar. Texnologik vazifasiga ko'ra universal va yengillashtirilgan bir, ikki, to'rt va olti tarmoq (arqon)li shaklda chiqariladi.</p>	<p>Flexible sling</p>
	<p>Гидрант пожарный</p>	<p>O't o'chirish gidranti – tashqi vodoprovod tarmoqlaridan o't ochirish zaruriyati uchun suv oladigan ko'chmas (statsionar) qurilma. Yer osti (quduqlarda) va yerda joylashgan o't o'chirish gidrantlari bo'ladi. (Gidrant – vodoprovod kolonkasi yoki jo'mragi).</p>	<p>Fireplug</p>






	<p>Гидроизоляционные материалы</p>	<p>Gidroizolyatsion (namdan muhofazalovchi) materiallar – <i>qurilish konstruksiyalari, binolar va inshootlarni suv, kimyoviy agressiv moddalar (kislotalar, ishqorlar va b.)ning zararli ta'siridan himoyalovchi materiallar. Ishlatilash sohasiga qarab antifiltratsion (sizib o'tishga qarshi), zanglashga qarshi va germetizatsiyalovchi, asosiy materialining turlari bo'yicha – bitumli, qatronli, polimer, mineral va metall turlariga bo'linadi.</i></p>	<p>Water seal product</p>
	<p>Гидроизоляционный слой</p>	<p>Gidroizolyatsion qatlam – <i>bino yoki har qanday konstruksiyani tabiiy namlikning yemiruvchi ta'siridan himoyalovchi qatlam.</i></p>	<p>Water seal layer</p>
	<p>Гипс</p>	<p>Gips, ganch – <i>mineral va uni oldindan va kuydirgandan keyin maydalab tayyorlangan qurilish material, tez qotadigan bog'lovchi modda. Xonalarning ichini pardozlashda qo'llaniladi.</i></p>	<p>Alabaster</p>
	<p>Глазурь</p>	<p>Glazur, sir – <i>sopol mahsulotlarning sirtidagi shishasimon yupqa qatlam. Eritilgan shishasimon modda surtilgandan keyin qotishidan hosil bo'ladi. Sir mahsulotlarning fizik-kimyoviy xossalari va bezatilish sifatini yaxshilaydi, mustahkamligi va chidamliligini oshiradi.</i></p>	<p>Glaze</p>






	Гранит	<p>Granit – yer qobig`ida keng tarqalgan magmatik, qattiq tog` jinsi. Granit dala shpati, kvarts va slyuda (shaffof mineral)larning yirik kristallari donachalari aralashmasidan tashkil topadi. Granit “donador” tosh hisoblanadi.</p>	Granite
	Грунт	<p>Grunt, tuproq, yer, zamin – barcha tog` jinrlarining umumlashirilgan nomlanishi, insonlarning qurilish faoliyati ob`ekti. Grunt bin ova inshootlarning yer osti qismi joylashadigan tabiiy muhit hisoblanadi. Gruntlarning turlari: qum, qumloq tuproq, loy, torf, shag`al, har xil qoyatosh va zichlangan gruntlar.</p>	Bottom
	Деготь	<p>Dyogot, qatron – yopishqoqligi yuqori bo`lgan qora rangli suyuqlik. Yog`ochni havosiz muhitda issiqlik ta`sirida chiritib olinadi. Kreolin va kreozot olishda foydalaniladi.</p>	Tar
	Деформация	<p>Deformatsiya – biror fizik ta`sir (tashqi kuchlar, isitish va sovutish, namlikning o`zgarishi va b.) natijasida jism yoki uning bir qismining shakli va o`lchamlarining o`zgarishi.</p>	Strain
	Деформация здания (сооружения)	<p>Binoning deformatsiyasi – turli xil kuchlar va ta`sirlar natijasida bin ova inshootlarning shakl va o`lchamlarining o`zgarishi, shuningdek turg`unlikning yo`qotilishi (cho`kish, surilish, og`ish va b.).</p>	Edifice strain






	Деформация конструкции	Konstruksiyaning deformatsiyasi – <i>konstruksiya yoki uning qismlarining kuchlar va boshqa ta'sirlar natijasida shakl va o'lchamlarining o'zgarishi.</i>	Construction strain
	Деформация основания	Asosning deformatsiyalanishi – <i>bin o (inshoot)dan asosga uzatiladigan kuchlanishlar yoki bin o qurilishi va foydalanilishi davrida gruntning fizik xolatidagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan deformatsiya.</i>	Foundation strain
	Деформация пластическая	Plastik deformatsiya – <i>kuchlar ta'sirida material yaxlitligining mikroskopik buzilishlarsiz hosil bo'lgan qoldiq deformatsiya.</i>	Plastic strain
	Деформация упругая	Elastik deformatsiya – <i>hosil qiluvchi kuchlar olinganidan keyin yo'qoladigan deformatsiya. Bunda jism dastlabki shakli va o'lchamlariga qaytadi.</i>	Tough strain
	Домкрат	Domkrat – <i>yuklarni katta bo'lmagan (odanda 2 m gacha) balandlikka ko'tarish uchun statsionar yoki ko'chma mexanizm. Reykali, vintli (rasmda tasvirlangan), pnevmatik va gidravlik domkratlar bo'ladi. Domkratlar bir necha kilogrammdan yuzlab tonnagacha bo'lgan yukni ko'taradi. Ta'mirlash-qurilish va montaj ishlarida qo'llaniladi.</i>	Adjustable jack






	<p>Древесноволокнистые плиты (ДВП)</p>	<p>Yog`och tolali plitalar – yog`ochni tolasimon massa holatigacha maydalab, keyinchalik undan plita qoliplab olinadigan material. O`ta qattiq, qattiq, o`rtacha qattiqlikdagi, izolyatsion-pardoqlash va izolyatsion yog`och tolali plitalar bo`ladi.</p>	<p>Wood-fibre board</p>
	<p>Древесностружечные плиты</p>	<p>Yog`och qirindili plitalar – yog`och qirindilariga oz miqdorda sintetik bog`lovchi (odatda karbamid smolasi) qo`shilgan qorishmani qizdirib shtamplash bilan olinadigan material. Yog`och qirindili plitalarning fizik-mexanik xossalari yog`ochga yaqin, ammo namlikka chidamliligi past.</p>	<p>Sawdust flag</p>
	<p>Дрена</p>	<p>Drena – sizot suvlarni yig`ish va chiqarib tashlaydigan sun`iy qurilma (quvur, drenaj kanali, quduq). Drenalar qo`llanilish sohasi (quritkichlar, kollektorlar), konstruksiyalari va materiallariga ko`ra farqlanadi: quvursimon (sopol, yog`och, plastmassa va b.), bo`shliqli (kovaksimon, tirqishli), to`ldiruvchili (shag`altoshli, shox-shabba yoki qamish bog`lamlari). Drenalar yerlardagi ortiqcha namlikni kamaytirish, yerlarning sho`rlanishiga qarshi kurashda va og`ir tuproqli yerlarda gaz almashinuvini yaxshilash maqsadida qo`llaniladi.</p>	<p>Covered drain</p>
 <p>Крупный гравий Перфорированная дренажная труба</p>	<p>Дренаж</p>	<p>Drenaj – yer osti suvlarining sathini pasaytirish maqsadida sizot suvlarini yig`ib va chiqarib tashlaydigan quvur (drena), quduq kabi qurilmalar tizimi.</p>	<p>Disclaim</p>






	<p>Дюбель</p>	<p>Dyubel – mahkamlash mahsulotlari. Dyubel qattiq yaxlit devor yoki shipga materiallarni mahkamlashda ishlatiladi.</p>	<p>Spike</p>
	<p>Железобетон</p>	<p>Temir-beton – beton va po`lat armaturani monolit birlashtirib hocil qilingan birikma. Konstruksiya yaxlit jism kabi ishlaydi. Beton odatda siquvchi, armatura esa cho`zuvchi kuchlanishlarni qabul qiladi. Mustahkamlikning yuqoriligi, ko`pga chidamlilik, shakl hosil qilishning osonligi temir-betonning asosiy afzalliklari hisoblanadi.</p>	<p>Steel concrete</p>
	<p>Жидкие гвозди</p>	<p>Suyuq mixlar – yuqori adgezik sifatleri bilan ajralib turuvchi yelimlar. Suyuq mix yelimi biriktiriladigan materiallarga yaxlit qatlam qilib surtilmasdan, mix yoki dyubel qoqiladigan joylarga nuqtali qo`yib chiqiladi.</p>	<p>Sloppy spike</p>
	<p>Заглушка</p>	<p>Qopqoq, tiqin – teshikni zichlab berkitadigan moslama. Quvurlarning uchini berkitishda qo`llaniladigan anjom.</p>	<p>Cover plug</p>
	<p>Закладные детали (в железобетоне)</p>	<p>Bog`lovchi detallar (temi-betonda) – temir-beton elementlarni betonlashdan oldin o`rnatiladigan metall detallar; temir-beton va metall konstruksiyalarni o`zaro biriktirishda qo`llaniladi. Bunda bog`lovchi detallar payvandlab biriktiriladi. Bog`lovchi detallarning ochiq sirtlari zanglashdan himoyalanaadi.</p>	<p>Bond component</p>






	<p>Заклепка</p>	<p>Parchin mix – <i>silindrik shaklli, bir uchida kallagi boʻlgan metall sterjen. Parchin mix metall sirtlarni biriktirishda ishlatiladi.</i></p>	<p>Rivet</p>
	<p>Затвор гидравлический (водяной затвор)</p>	<p>Gidravlik zatvor (qulf, zanjir, tamba), suv zatvori – <i>gazlarning fazoning bir qismidan ikkinchisiga (truboprovoddan xonaga, truboprovodning bir uchastkasidan ikkinchisiga) oʻtishiga toʻsqinlik qiladigan qurilma. Unda gazlarning nomaʼqul yoʻnalishga oqishiga suv qatlami toʻsqinlik qiladi.</i></p>	<p>Water-gate</p>
	<p>Затвор гидротехнический</p>	<p>Gidrotexnik zatvor – <i>gidrotexnik inshoot (suv tashlaydigan inshoot plotinalari, shlyuzlar, truboprovodlar, gidrotexnik tunnellar va b.)dagi suv oʻtkazish teshiklarini berkitib ochuvchi qoʻzgʻaluvchan qurilma. Suv oqimi miqdorini boshqarishda foydalaniladi.</i></p>	<p>Hydraulic water-gate</p>
	<p>Затяжка</p>	<p>Tortqi – <i>arka, gumbaz, cherdak toʻsini kabilarning raspor (raspor – vertikal yoʻnalishda taʼsir qiluvchi kuchning gorizontaal yoʻnalishda tarqaladigan bosimi) konstruksiyalaridagi choʻzuvchi kuchlanishlarni qabul qiluvchi oʻzak (sterjen) element.</i></p>	<p>Drawing tight</p>
	<p>Здание</p>	<p>Bino – <i>inson ishtirokidagi turli faoliyatlar uchun moʻljallangan, yopiq fazo hosil qiluvchi, yerda tiklangan qurilish konstruksiyalari tizimi (turar-joy, teatr, vokzal, ishlab chiqarish korpusi).</i></p>	<p>Edifice</p>






	<p>Здание жилые</p>	<p>Turar-joy binolari – <i>insonlarning doimiy yashashlari uchun kvartira uylar va biror korxonada ishlash yoki o`qish davri uchun yotoqxon.</i></p>	<p>Live house</p>
	<p>Здания и сооружения временные</p>	<p>Vaqtinchalik bino va inshootlar – <i>qurilishdagi ishchilarga xizmat ko`rsatish hamda qurilish-montaj ishlarini bajarish maqsadida maxsus tiklanadigan yoki vaqtinchalik moslashtiriladigan bino va inshootlar (ishlab chiqarish yoki yordamchi maqsadlarda).</i></p>	<p>Temporary house</p>
	<p>Здания и сооружения общественные</p>	<p>Jamoat binolari va inshootlari – <i>aholiga maishiy xizmat ko`rsatish va ma`muriy hamda jamoat tashkilotlarini joylashtirishga mo`ljallangan bin ova inshootlar.</i></p>	<p>Social house</p>
	<p>Здания производственные</p>	<p>Ishlab chiqarish binolari – <i>sanoat va qishloq xo`jaligi mahsulolarini ishlab chiqaruvchi korxonalarni joylashtirish va kishilarning ishlashlari hamda texnologik jihozlardan foydalanish uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida tiklangan binolar.</i></p>	<p>Production house</p>
	<p>Зенкование</p>	<p>Zenkirlash – <i>teshik diametrini bir vaqtning o`zida konus shaklida kengaytirish.</i></p>	<p>Countersink</p>




	<p>Иглофильтр</p>	<p>Ignafiltr – <i>quduq vazifasini bajaradigan, uchiga diametri 40-70 mm lik filtr o`rnatilgan quvur. Yerlarni quritishda yer osti suvlarining sathini pasaytirishda ishlatiladi. Quvur chiqarib tashlovchi nasos o`rnatilgan kollektor bilan tutashtiriladi.</i></p>	<p>Cutting point filter</p>
	<p>Известняк</p>	<p>Ohaktosh – <i>keng tarqalgan cho`kma tog` jinsi. Qumli, tuproqli (mergel), ko`mirli va bitumli ohaktoshlar bo`ladi. Ohaktosh qurilishda qurilish toshi, shag`al, ohak ko`rinishida ishlatiladi.</i></p>	<p>Limestone</p>
	<p>Известь</p>	<p>Ohak – <i>ohaktoshni kuydirib, ishlov berib olinadigan bog`lovchi modda. So`ndirilgan va so`ndirilmagan ohaklar bo`ladi. Ohaktosh tarkibida 95% gacha CaO bo`lib, bog`lovchi material vazifasini bajaradi. Qurilish qorishmalari va beton tayyorlashda, silikat g`isht ishlab chiqarishda, avtoklav silikat beton mahsulotlar tayyorlashda qo`llaniladi.</i></p>	<p>Calcareous earth</p>
	<p>Изделия строительные</p>	<p>Qurilish mahsulotlari – <i>qurilishga tayyor holda yetkazib beriladigan, zavod sharoitida tayyorlangan elementlar.</i></p>	<p>Constructional product</p>
	<p>Изол</p>	<p>Izol – <i>rezinobitum bog`lovchi, plastifikator, to`ldirgich va asbestdan olinadigan namdan muhafazalovchi tomga yopiladigan material. Izol neft bitumlari yoki bitum mastikalari bilan yopishtiriladi.</i></p>	<p>Fiberglass-bitumen sheath</p>






	Изолятор	Izolyator – <i>elektr simlarini osish va izolyatsiyalash uchun ishlatiladigan maxsus rolik va boshqa moslamalar.</i>	Isolation ward
	Изразцы	Koshin – <i>loyni kuydirib, rangli sir qoplab tayyorlangan bezak plitkalari. Zarur shaklga keltirilgan koshinlar quritilib, keyin 1150 °C gacha haroratda kuydiriladi. Koshinlar silliq yoki relyefli, sirlangan (mayolika) yoki sirlanmagan (terrakota) bo`lishi mumkin.</i>	Dutch tile
	Изыскание инженерные	Muhandislik (dastlabki) qidiruv ishlari – <i>qurilish bo`ladigan hududni texnik va iqtisodiy xususiyatlarini kompleks tekshirish. Yangi obyektlarni loyihalash, mavjudlarini ta`mirlash, qurilishning maqsadga muvofiqligi va joylashtirish uchun zarur ma`lumotlarni yig`ish maqsadida o`tkaziladi.</i>	Investigation locating
	Искусственные сооружения	Sun`iy inshootlar – <i>yo`lning har xil to`siqlar (daryo, jarlik, dara) bilan kesishishida tiklanadigan inshootlarning shartli nomlanishi. Eng ko`p tarqalgan sun`iy inshootlar – ko`priklar, kesishgan yo`l ustidan o`tkazilgan ikkinchi yo`llar, estakadalar, teshik ko`priklar, tunnellar, tepalik ostidagi quvurlar.</i>	Engineering structures
	Камень бутовый	Xarsangtosh – <i>o`lchami 150-500 mm bo`lgan tabiiy tosh bo`laklari. Xarsangtoshlar parchalangan bo`laklar yoki toshtaxta ko`rinishida bo`lishi mumkin. Poydevorlar va ayrim inshootlarning devorlarini tiklashda yoki gidrotexnik inshootlarning ayrim qismlarini betonlashtirishda ishlatiladi.</i>	Dummy road weight






	<p>Камень керамический</p>	<p>Sopol tosh – loy xomashyolariga har xil qo`shimchalar qo`shib tayyorlanadigan ichi kavak qurilish materiali. O`lchamlarining kattaligi bilan g`ishtdan ajralib turadi. Sopol tosh shuningdek markasi, zichligi, sovuqqa chidamliligi bilan ham farqlanadi.</p>	<p>Keramic weight</p>
	<p>Камнебетон</p>	<p>Toshbeton – toshni beton qorishmasiga vibratsiya (tebranish, zirrillash) yordamida botirib hosil qilinadigan material.</p>	<p>Lithic concrete</p>
	<p>Канал</p>	<p>Kanal, soy – 1) suvni bosimsiz, o`z oqimi bilan o`tkazishga mo`ljallangan, katta masofaga cho`zilgan, chuqurlik yoki ko`tarmada joylashgan ochiq inshoot; 2) aloqa yo`llari (kabellar, truboprovodlar va h.)ni yotqizishga mo`ljallangan, balandligi 2 m dan kam, yer ostida joylashgan katta masofaga cho`zilgan inshoot.</p>	<p>Channel</p>
	<p>Канализация</p>	<p>Kanalizatsiya – aholi punktlari, sanoat korxonalarini va boshqa obektlardan yog`in suvlari, axlat, chiqindi kabilarni qabul qilib yig`ish va chiqarib tashlaydigan, shuningdek ularni utilizatsiyasi (foydali suratda ishlatish)dan avval tozalaydigan va zararsizlantiradigan muhandislik inshootlari (truboprovodlar, nasos stansiyalari, suvni tozalash inshootlari) va jihozlari (sanitariya asbob-anjomlari, quvurlarning ustunlari), kompleksi.</p>	<p>Canalization</p>
	<p>Канат</p>	<p>Arqon, kanat – po`lat sim, ip, eshilgan ip, o`simlik, sintetik va mineral tolalardan tayyorlangan egiluvchan mahsulot. Tayyorlanish usuliga ko`ra arqonlarning chiyratma, eshilgan, eshilmagan va to`qilgan turlari bo`ladi. Po`lat arqonlar diametri 0,5-2 mm lik simlardan tayyorlanadi.</p>	<p>Rope</p>





	<p>Канатная дорога</p>	<p>Arqonli yo`l – yuklar va yo`lovchilarni tashish uchun vagoncha, vagon yoki kreslolarni fazoda ko`chirishda tayanchlar oraligliga tortilgan po`lat arqondan foydalaniladigan qurilma. Yuk tashish arqonli yo`llarining uzunligi 200 km, ko`tarilish burchagi 45° gacha bo`lishi va soatiga 1000 t gacha yuk tashilishi mumkin.</p>	<p>Aerial railway</p>
	<p>Каркас</p>	<p>Karkas, sinch – bino yoki inshootning o`zaro biriktirilgan alohida elementlar (sterjehlar)dan tashkil topgan skleti, sinchlari. Mahsulot (inshoot)ning mustahkamligi, turg`unligi, chidamliligi va mahsulotning shaklini belgilaydi. Yog`och, metall, temir-beton va boshqa materiallardan tayyorlanadi.</p>	<p>Frame</p>
	<p>Каркас арматурный</p>	<p>Armaturali karkas – temir-beton konstruksiyalarning turlariga mos ravishda hajmli yoki tekis qilib, opalubka (beton quyish uchun qolip)ga o`rnatish uchun yig`ilgan (bog`lab, payvandlab) bo`ylama va ko`ndalang armatura sterjenlari jamlanmasi.</p>	<p>Frame</p>
	<p>Каркас здания (сооружения)</p>	<p>Bino (inshoot) karkasi – yuklar va boshqa ta`sirlarni o`ziga qabul qilib, bino (inshoot)ning mustahkamligi hamda chidamliligini ta`minlaydigan yuk ko`taruvchi sterjenlar tizimi.</p>	<p>House frame</p>
	<p>Каркасно-панельные конструкции</p>	<p>Karkas-panelli konstruksiyalar – karkasning yuk ko`taruvchi elementlari (temir-beton yoki po`lat kolonna va rigellar) va o`rab turuvchi konstruksiyalar (devor panellari, yopma va orayopmalarning plita va panellari)dan tarkib topgan konstruksiyalar. Asosan ko`p qavatli binolar qurilishi uchun mo`ljallangan.</p>	<p>Frame-pavement construction</p>

	<p>Карта ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ</p>	<p>Texnologik xarita – <i>qurilish-montaj ishlarining ko`p takrorlanadigan turlarini qulay va bir xilda bajarilish texnologiyasini belgilaydigan hamda qurilish ishlarini bajarish loyihasini o`rniga yoki unga qo`shimcha foydalaniladigan hujjat. Rasmda ikki nishabli tom qurilishining texnologik xaritasi tasvirlangan.</i></p>	<p>Engineering portolano</p>
	<p>Катанка</p>	<p>Katanka (ingichka po`lat chiviq) – <i>qizdirib dumaloqlangan, diametri 5-10 mm bo`lgan sim. Po`lat katankalardan temir-beton konstruksiyalar uchun armaturalar tayyorlanadi.</i></p>	<p>Rod</p>
	<p>Кафель</p>	<p>Kafel, koshin – <i>ohakgil (mergel) loyini kuydirib, tashqi tomonidan sir qoplangan yupqa plitka, koshin. Devor, pol va pechkalarning sirtini qoplashda ishlatiladi.</i></p>	<p>Dutch tile</p>
	<p>Керамическая плитка</p>	<p>Sopol plitka – <i>sopol loyni kuydirib olingan tekis mahsulot. Sirtlarni pardozlashda ishlatiladi. Kukunsimon chala qurigan sopol bo`tqasi quritilib, yaxlitlanib birikkunicha qizdirib polni qoplashda ishlatiladigan dopol plitka olinadi. Yuqori mustahkamligi, yeyilishga chidamliligi bilan ajralib turadi. Silliq, g`dir-budir va taramlangan, bir rangli va ko`p rangli turlari bo`ladi.</i></p>	<p>Stoneware tile</p>
	<p>Кессон</p>	<p>Kesson – <i>suv ostida yoki suvga to`yingan tuproqda bajariladigan ishlar uchun zarur sharoitlarni ta`minlash qurilma (kamera)si.</i></p>	<p>Cassoon</p>





	<p>Кирпич</p>	<p>G`isht – <i>parallelepiped ko`rinishidagi to`g`ri shakldagi sun`iy tosh. Zichligi 1600-1800 kg/m³ bo`lgan oddiy va zichligi 1200-1600 kg/m³ bo`lgan takomillashtirilgan (asosan devor va pardevorlarni tiklashda ishlatiladi) g`ishtlar bo`ladi. G`ishtlar siqilishdagi mustahkamligiga qarab 75, 100, 150, 200 va 300 markalarga ajratiladi. Yengil g`isht issiqlik qurilmalarin izolyatsiyalashda qo`llaniladi; maxsus (o`tga chidamli, kislotaga chidamli) g`ishtlar sanoat qurilmalari (pechlar, kimyoviy agregatlar, omborxonalar, tindirgichlar)da konstruksion va futerlash materialli sifatida ishlatiladi; klinker g`ishtlardan yo`l qurilishi va sanoat binolarining pollarini qurishda ishlatiladi.</i></p>	<p>Modular brick</p>
	<p>Кладка бутовая</p>	<p>Tosh devor (xarsangtoshdan) – <i>poydevor, yerto`la qavatlarining devorlari, devorning pastki qismlai va isitilmaydigan binolarning devorlarinin tiklashda qo`llaniladi. Devor tiklash uchun ohaktosh, qumtosh, chig`anoqtosh, tuf, granit va yirik toshlar ishlatiladi.</i></p>	<p>Rubble bond</p>
	<p>Кондиционирование воздуха</p>	<p>Binolarda sun`iy iqlim hosil qilish – <i>kishilarning o`zini yaxshi his qilishlari uchun sharoit yaratish, texnologik jarayonlarni tashkil qilish, jihoz va qurilmalar ishlaydigan muhit hosil qilish va materiallarni saqlash maqsadida yopiq xonalarda havo harorati, nisbiy namligi, tozaligi, tarkibi va harakati tezligini yaratib, avtomatik saqlash.</i></p>	<p>Air-conditioning</p>






	<p>Конструкции комплексные</p>	<p>Kompleks konstruksiyalar – turli xil materiallardan tashkil topib, o`zaro bog`liq holda ishlaydigan qurilish konstruksiyalari (masalan, sovuq o`tkazmaydigan material [2, 3] va tom [1]li yopma plita [4]).</p>	<p>Complex construction</p>
	<p>Конструкции монолитные</p>	<p>Monolit konstruksiyalar – asosiy qismlari yaxlit (monolit) shaklda bevosita bino yoki inshoot tiklanadigan joyning o`zida bajarilgan qurilish konstruksiyalari (asosan beton va temir-betondan).</p>	<p>Monolithic construction</p>
	<p>Конструкции несущие</p>	<p>Ko`tarib turuvchi konstruksiyalar – bino va inshootlardagi yuklar va ta`sirlarni qabul qilib ularning mustahkamligi, bikrligi va turg`unlagini ta`minlaydigan qurilish konstruksiyalari.</p>	<p>Portative construction</p>
	<p>Конструкции ограждающие</p>	<p>O`rovchi konstruksiyalar – bino va inshootlarning ichki qismlarini tashqi muhit ta`siridan saqlash, ichki qismlarning bo`glanishlari va aloqalarini normativ talablariga mosligini ta`minlaydigan qurilish qonstruksiyalari.</p>	<p>Guard construction</p>
	<p>Конструкции плоскостные</p>	<p>Tekis konstruksiyalar – faqat ma`lum tekislik bo`yicha ta`sir qiluvchi kuchlanishlarni qabul qilishga mo`ljallangan konstruksiyalar. Masalan, orayopma plitalar.</p>	<p>Planar construction</p>

	<p>Конструкции пневматические</p>	<p>Pnevmatik konstruksiyalar – rezina yoki polimer qoplamali havo o`tkazmaydigan sintetik matodan tayyorlangan yumshoq gumbazlar. Ularning berk ichki hajmiga atmosfera havosi haydalib konstruksiya hosil qilnadi.</p>	<p>Air construction</p>
	<p>Конструкции пространственные</p>	<p>Fazoviy konstruksiyalar – o`zlariga fazoviy ta'sir qiluvchi kuchlar sistemasini qabul qilishga mo`ljallangan konstruksiyalar.</p>	<p>Solid construction</p>
	<p>Конструкции сборные</p>	<p>Yig`ma konstruksiyalar – korxonalarda tayyorlanib, bino va inshootlarni tiklashda foydalaniladigan qurilish konstruksiyalari.</p>	<p>Modular construction</p>
	<p>Конструкции строительные</p>	<p>Qurilish konstruksiyalari – bin ova inshootlardagi yuk ko`taruvchi, o`rab turuvchi yoki aralash (yuk ko`tarib o`rab turuvchi) vazifalarni bajaradigan elementlar. Rasmda temir-beton fermaning elementlari tasvirlangan.</p>	<p>Constructional construction</p>
	<p>Контейнер</p>	<p>Konteyner – standart idish shaklidagi olib qo`yiladigan moslama. Har xil transport vositalarida yuklarni tashishda foydalaniladi. Bir turdagi transportdan ikkinchi turga mexanizatsiyalashtirilgan yklash, tushirish moslamalariga ega. Universal, ixtisoslashgan va maxsus konteynerlar bo`ladi. 1,25; 2,5; 5; 10; 20; 30 t lik yukni tashishga mo`ljallangan konteynerlar ishlab chiqariladi.</p>	<p>Container</p>





	<p>Координационные оси</p>	<p>Koordinatsion o`qlar – uzun shtrixli ingichka shtrixpunktir chiziqlar bilan har bir bino yoki inshootning tasvirida ko`rsatiladigan o`qlar. Koordinatsion o`qlar arab raqamlari va bosh harflar bilan diametri 6-12 mm lik aylanalar ichida belgilanadi.</p>	<p>Coordination axis</p>
	<p>Костыль</p>	<p>Kostil – 1) tayoq, hassa, qo`ltiq tayoq; 2) to`g`ri burchak ostida buklangan katta yo`g`on mix yoki tirgak. Temir yo`l kostillari rels va yog`och shpallarni temir yo`l ko`tarmasiga mahkamlashda ishlatiladi.</p>	<p>Brob</p>
	<p>Котлован</p>	<p>Kotlovan – bino va inshootlarning poydevor va asoslarini yotqizish uchun qazilgan chuqur. Kotlovanlar odatda yer kavlaydigan mashinalar bilan qaziladi.</p>	<p>Dish, barrow pit</p>
	<p>Кровля</p>	<p>Tom – binoning atmosferadan bo`ladigan har xil tashqi ta`sirlarni qabul qiladigan tepadagi qismi. Uning asosiy vazifasi yomg`ir va oqar suvlarni chiqarib tashlashdan iborat. Tomning eng zarur xususiyatlari uni tayyorlash va foydalanish jarayonining yengilligi, chidamliligi va tejamliligi hisoblanadi.</p>	<p>Roof, handing wall</p>
	<p>Кровля плоская</p>	<p>Tekis tom – nishabliligi sezilmaydigan (1-3 %) yoki umuman nishabliksiz qurilgan tom. Bunday tomlar chordoqli yoki chordoqsiz (bu holda icciqlik izolyatsiyasi qatlami qo`shilsdi) bo`lishi mumkin.</p>	<p>Terrace</p>






	Кровля односкатная	<p>Bir nishabli tom – <i>chordoq to`sinlari tayanadigan devor bir tekisda pasayib (ko`tarilab) boradigan devorga qurilgan tom. Bunday tomlarni qurish oson. Ularni yopishda qimmat bo`lmagan ishonchli materiallar – ondulin, shifer, ruberoidlardan foydalanish mumkin. Bunday tomlarda yog`inlar yig`ilib qolmasdan nishab tarafga oqib ketadi.</i></p>	Pent-roof
	Кровля двухскатная	<p>Ikki nishabli tom – <i>xususiy joylarda eng ommalashgan va qulay tomlardan biri. Bir nishabli tomlarga nisbatan konstruktiv tuzilishi murakkabroq, qor, yomg`ir, shamol ta`siriga chidamli. Bir nishabli tomga nisbatan chiroyli ko`rinishga ega.</i></p>	Saddle roof
	Крыша многосщипцовая	<p>Ko`p qirrali tom – <i>murakkab konstruktiv tuzilishga ega. Ko`proq ko`pburchak hsaklidagi uylar, hamda taqab solingan imoratlar va bolaxonalarda qo`llaniladi.</i></p>	Laced valley
	Кровля сферическая	<p>Sferik tom – <i>bunday ko`rinishdagi tom ostida odatda shiyponcha joylashtiriladi. Stadionlar va shu kabi jamoat binolari ham shu kabi yoki gumbazli tom bilan yopiladi. Gumbazdan uzatiladigan kuchlanishlarni qabul qilish uchun devor perimetrlari bo`ylab bikrlik xalqasi o`rnatiladi.</i></p>	Sphere handing wall
	Кронштейн	<p>Kronshteyn – <i>devor yoki kolonkaga mahkamlangan tokcha, tayanch.</i></p>	Bracket





	<p>Крупноблочные конструкции</p>	<p>Yirik blokli konstruksiyalar – katta o`lchamli sun`iy yoki tabiiy toshlar (yirik bloklar)dan yig`ilgan konstruksiyalar. Turar-joylar, jamoat va sanoat binolari va inshootlarini tiklashda qo`llaniladi. Yirik bloklar zavodlarda beton, g`isht, sopol toshlar, tuf (g`ovak tog` jinsi), chig`anoqtosh kabilardan tayyorlanadi. Qurilishda yengil va g`ovak betonlar asosida tayyorlangan tashqi devor bloklarining konstruksiyalari keng tarqalgan.</p>	<p>Large dimensional block</p>
	<p>Крупнопористый бетон</p>	<p>Yirik g`ovakli beton – zich yoki g`ovakli shag`al, bog`lovchi (asosan portlandsement) hamda suv qorishmasiga qum aralashmasdan olingan beton. Qum ishlatilmasligi va sementning kam sarfi (280 kg/m³) betonning yirik g`ovakli va zichligining kam bo`lishini ta`minlaydi.</p>	<p>Coarse-pored concrete</p>
	<p>Крыша</p>	<p>Tom, tim – binoning ustki chegaralovchi qismi. Yuk ko`taruvchi (cherdak to`sini, ferma, tirgak, panellar va h.), qor, shamol tomning og`irligini devorga uzatuvchi va alohida tayanchlar hamda tashqi qobiq – tomdan tashkil topgan bo`ladi. Cherdak (chordoq)li va cherdaksiz tomlar bo`ladi.</p>	<p>Roof</p>
	<p>Кювет</p>	<p>Kyuvet (yo`l chetidagi ariq) – yo`l sathi va yonbag`irlaridagi suvlarni chiqarib tashlash uchun yo`l chetiga qazilgan ariq.</p>	<p>Ditch</p>





	Лаги	Laga – yog`och, brus yoki metall to`sinlar. Lagalar bino poli yoki taxtasupalarda tayanch vazifasini bajaradi.	Time lag
	Леса строительные	Qurilish havoalari – qurilish va ta`mirlash ishlarida ishchilar va qurilish materiallarini joylashtirishgan yordamchi vaqtinchalik qurilmalar. Tirab qo`yiladigan, zinasimon, osma, ko`chma, o`ziyurar va boshqa turdagi qurilish havoalari bo`ladi.	Falsework
	Лестничный марш	Zina marshi – zinaning ikki supa yoki qavat o`rtasidagi qiya qismi.	Flight of stairs
	Линолеум	Linoleum – polga qoplanadigan polimer o`ram (rulon) material. Asosiy xom ashyosi turiga qarab polivinilxlorid, alkid, nitrolinoleum va rezina (relin) linoleumlar bo`ladi. Linoleumlar negizsiz (bir yoki ko`p qatlamli) va mustahkamlangan negizli (mato, pergamin) yoki shovqindan muhofazalovchi negizli bo`lishi mumkin.	Linoleum
	Лоток	Ochiq nov, tarnov – 1) kommunal tarmoqlar yotqizish uchun temir-beton konstruksiya; 2) oqar suv (suyuqlik) tashish moslamasi; 3) yukni o`zining og`irligi ta`sirida sirpantirib tashiydigan qiya o`rnatilgan moslama.	Tray





	<p>Малахит</p>	<p>Malaxit – eng chiroyli minerallaedan biri, yashil rangli tosh. Ochiq yashil ko`kimgir – feruza rangdan qoramtir yashil ranggacha bo`lishi mumkin. Kolonnalar, stol ustlari, kaminlar, vazalar, torsher kabilarni sirtini qoplashda ishlatiladi.</p>	<p>Green mineral</p>
	<p>Мачта</p>	<p>Machta - poydevorga ankerlar bilan o`rnatilib, tortqilar bilan muvozanatlangan stvoldan tashkil topgan vertikal inshoot.</p>	<p>Mast</p>
	<p>Металлочерепица</p>	<p>Metall cherepitsa – ikki tarafidan ham himoyalovchi va bezak vazifasini o`tovchi polimer tarkib qoplangan, profillangan, ruxlangan po`lat tunuka. Metall cherepitsaning tashqi ko`rinishi an'anaviy tomga yopiladigan sopol cherepitsalarni eslatadi.</p>	<p>Coated metal tiling</p>
	<p>Минеральная вата</p>	<p>Mineral momiq – donna pechlarining eritmalari – toshqollar yoki ayrim tog` jinslarini shisha tola ko`rinishida qayta ishlab olingan issiqlik izolyatsiyalovchi material. Sintetik yoki bitum bog`lovchilar qo`shib tayyorlangan tayyor mahsulot (plitalar, chipta, qobiq)lar ko`rinishida qo`llaniladi.</p>	<p>Mineral cottonwool</p>






	<p>Мобильные здания</p>	<p>Mobil binolar – <i>ishchilarga qulay boʻlgan mehnat va maishiy sharoitlarni yaratish uchun foydalaniladigan vaqtinchalik binolar. Qoʻllanilishiga qarab mobil binolar uch guruhga boʻlinadi: ishlab chiqarish – asboblarni saqlanadigan, mexanik ustaxonalar, qozonxonalar, laboratoriyalar, nasos stansiyalari kabilar; omborxonalar – materiallar, jihozlar, asbob-uskunalar kabilarni saqlash joylari; yordamchi – usta, propab idorasi, dam olish va ishchilar isinish xonasi, ovqatlanish joyi, dushxona, medpunkt kabilar.</i></p>	<p>Mobile house</p>
	<p>Монолит</p>	<p>Monolit, yaxlit tosh va undan yasalgan narsa – <i>yaxlit tosh palaxsasi; toshdan tiklangan yaxlit inshoot (haykal) yoki uning bir qismi (kolonna).</i></p>	<p>Monolith</p>
	<p>Мрамор</p>	<p>Marmar, marmartosh – <i>ohaktosh va dolomitning qayta kristallanishi natijasida boshqa koʻrinishga oʻtishidan hosil boʻlgan togʻ jinsi. Yengil sayqallanadi. Siqilishga chidamliligi 50-250 MPa. Haykaltaroshlikda, maydachuyda mahsulot tayyorlashda va qoplama material hamda blok shaklida qurilish material sifatida ishlatiladi.</i></p>	<p>Marble</p>
	<p>Мраморная крошка</p>	<p>Marmar maydasi (uvogʻi) – <i>suvoq qorishmasi va bezak betonlarda toʻldirgʻich vazifasini bajaradi. Marmar maydasi marmar konlarini ishlashda hamda marmardan mahsulotlar tayyorlashda chiqqan chiqindilarni qayta ishlab olinadi.</i></p>	<p>Marble crumb</p>






	Муфта	Mufti – jihozlarning bir turi bo`lib, uning yordamida bir turdagi quvur ikkinchi tur quvur bilan birlashtiriladi.	Coupling
	Настил	To`shama, qat – inshootning tayanch konstruksiyalari (devor, tayanch, to`sin)ga o`rnatiladigan temir-beton, metall yoki yog`ochdan tayyorlangan konstruktiv element. Binolarning poli yoki tomi, sexlardagi texnologik maydonchalar, ko`priklarning o`tish qismlarini qoplashda asos bo`lib xizmat qiladi. Rasmda supasimon to`shama tasvirlangan.	Planking
	Нивелир	Nivelir – gorizontol tekislikda aylanadigan ko`rish trubkali, geometric nivelirlash (past-balandligini o`lchash)da foydalaniladigan optic-mexanik asbob. Nivelirlashda tanlangan biror nuqta yoki dengiz sathiga nisbatan yer sirtidagi nuqtalarning balandligi aniqlanadi.	Level instrument
	Нулевой цикл	Nolinchi sikl – binoning yer ostidagi qismini qurishda bajariladigan ishlar kompleksi. Vertikal rejalashtirish, kotlovan qazish, svaya (qoziqoyoq) qoqish, poydevor va podval devorlarini tiklash, muhandislik tarmoqlarini kirish va chiqishlarini o`rnatish, devorning yer osti qismlarini namdan muhofazalash, orayopmani yig`ish va kotlovandagi bo`shliqlarni tuproq bilan to`ldirish kabi ishlarni o`z ichiga oladi.	Zero round
	Нуль строительный	Qurilish noli – birinchi qavat poli sathining loyiha otmekasi. Qurilish nolii geodezik nivelirlab aniqlanadi va qurilish maydonchasida nahkamlab qo`yiladi yoki bino devoriga gorizontol qizil chiziq chizib belgilab qo`yiladi.	Constructional naught






	Обвязка	O`ram, chorcho`p – <i>karkas devorlarning gorizontaal elementi. Pastki o`ram butun karkasning asosi hisoblanadi.</i>	Binding
	Облицовка	Qoplama – <i>bino elementlari (devor, kolonna, orayopma, devorning pastki qismi) va inshoot sirtlarining tashqi qatlamini hosil qiladigan alohida donali materiallardan tuzilgan konstruksiya. Inshoot devorlari va boshqa konstruktiv detallari bezak va himoyalash xususiyatlariga ega bo`lgan tabiiy yoki sun`iy materiallar bilan qoplanadi.</i>	Lining
	Облицовочный кирпич	Qoplama g`isht – <i>yupqa (3-5 mm) tashqi qatlami kuydirilganda qizg`ish-och jigarrang tusga kiradi. Bunday g`ishtlar asosan qizil sopol g`isht tayyorlanadigan oddiy loydan iborat.</i>	Tapestry brick
	Обои	Oboy, gulqog`oz – <i>ichki xonalarni pardoqlashda ishlatiladigan o`ram qog`oz. Oldingi davrlarda asosan qog`oz va mato (qalin gazlama) oboylar ishlatilgan. Zamonaviy qurilishda oboylar uchta asosiy turlarga bo`linadi: oddiy (qog`ozdan), namga chidamli (polimerdan) va tovushni yutuvchi (tukli). Vinilli oboylar pastki qog`oz (yoki mato) ustiga polivinil qatlami qoplanib, keyin shu sirtga rasm solinadi yoki bosib naqsh tushiriladi.</i>	Wallpaper






	<p>Обои жидкие</p>	<p>Suyuq oboylar – <i>choksiz silliq va relefli qoplamalarni yaratish imkonini beradi. suyuq oboylar tarkibida paxta, tsellyuloza, to`qimachilik tolasi bo`lishi mumkin. Suyuq oboylar suv emulsiyasi bo`yoqlarda eritilib valikda surtiladi yoki bo`yoq purkagich bilan sepiladi. Maxsus bo`yoqlar bilan rang beriladi.</i></p>	<p>Molten wallpaper</p>
	<p>Оболочка</p>	<p>Qobiq, sirtqi ko`rinish – <i>ikkita egri chiziqli sirtlar bilan chegaralangan fazoviy konstruksiya. Egri chiziqli sirtlar orasidagi masofa (qobiq qalinligi) konstruksiyaning boshqa o`lchamlariga nisbatan kichik bo`ladi.</i></p>	<p>Shell</p>
	<p>Обочина</p>	<p>Yo`l cheti, yo`l yoqasi – <i>yo`l ko`tarmasining yon qismi.</i></p>	<p>Shoulder</p>
	<p>Оградительные сооружения</p>	<p>Ajratuvchi inshootlar – <i>port akvatoriyasini to`lqin, cho`kindi va muzlardan himoya qiladigan gidrotexnik inshoot. Ajratuvchi inshootlarning qirg`oqqa nisbatan joylashishiga qarab ular to`lqinlarni pasaytiruvchi va to`lqin qaytargich turlarga bo`linadi.</i></p>	<p>Land retention works</p>






	<p>Ограждение защитное</p>	<p>Himoyalovchi o`ramlar – kishilarning xavfli ishlab chiqarish zonalariga bexosdan kirib qolishlarini oldini olish va ish o`rinlarini begona shaxslardan himoyalash qurilmasi.</p>	<p>Enclosure</p>
	<p>Ограждение сигнальное</p>	<p>Signal (xabar) ajratishlar – xavfli ishlab chiqarish jarayonlari haqida ogohlantirish va kirib-chiqish chegeralangan zonalarini belgilashga mo`ljallangan qurilmalar.</p>	<p>Beep enclosure</p>
	<p>Огрунтовка</p>	<p>Gruntlash, tekislash – tozalangan va yog`sizlantirilgan sirtlarni bo`yashga tayyorlash jarayoni. Sirtni tekislash va uning g`ovaklarini hamda bo`yoqning umumiy sarfini kamaytirish uchun oldindan boyovchi moddalar surtiladi.</p>	<p>First-coat</p>
	<p>Ондулин</p>	<p>Ondulin – tolali to`ldirgich qo`shilgan to`lqinsimon listlangan tomga yopish materiali. Ondulin tarkibida asbest bo`lmaydi. Ondulin haroratning keskin o`zgarishlariga o`ta chidamliligi sababli barch iqlim sharoitlarida tengi topilmaydigan tom yopish materiali sanaladi.</p>	<p>Undulatory</p>






	<p>Опалубка</p>	<p>Opalubka, qolip – beton vat emir-beton konstruksiyalarni tiklashda armature va beton qorishma yotqiziladigan qolip. Yog`och, metall, temir-beton, plastmassa va boshqa materiallardan tayyorlanadi. Ajraladigan va qayta yig`ib qo`yiladigan, hajmli-blokli va sirpanuvchi opalubkalar keng tarqalgan.</p>	<p>Forms</p>
	<p>Орнамент</p>	<p>Naqsh – qurilish, tasviriy va amaliy san`atdagi bezak elementi. Stillashtirilgan tabiat va arxitektura shakllarining takrorlanishidan tuzilgan. Sirtlarni bezashda, xoshiyalash, qismlarga ajratish, ichki devor, ship va bino fasadini bezash ishlarida qo`llaniladi.</p>	<p>Ornament</p>
	<p>Осадка</p>	<p>Cho`kish, botish – grunt tarkibi o`zgarimasidan bino asosining deformatsiyalanishi. Gruntning zichlashishi va undagi ortiqcha suvlarning siqib chiqarilishi natijasida yuzaga keladi.</p>	<p>Remanence</p>
	<p>Осадочный шов</p>	<p>Cho`kish choki – fizik-mexanik xossalari turlicha bo`lgan gruntlarda tiklanadigan yoki bir-biridan qavatlarning balandligi yoki ta`sir kuchlari bilan farqlanadigan bin ova inshootlarning qismlari orasidagi chok. Haroratning o`zgarishidan kengayib-yorayish va seysmik ta`sirlarni pasaytiradi. Cho`kish choki bin ova uning poydevorini ham alohida qismlarga ajratadi.</p>	<p>Aqueous seam</p>
	<p>Оси разбивочные</p>	<p>Rejalashtirish o`qlari – qurilish o`rnida loyihada berilgan koordinatalar bo`yicha o`tkazilgan o`qlar (yo`nalishlar). Qurilayotgan bin ova inshootlardagi alohida elementlar va qismlarining vaziyatlarini belgilaydi.</p>	<p>Axis regionalization</p>






	<p>Оснастка монтажная</p>	<p>Montaj (yig`ish) jihozlari – yuklash-tushirish, tashish, konstruksiyalarni yiriklashtirib yig`ish va montaj qilish, ularni loyiha vaziyatida o`rnatilishi bilan bog`liq ishlab chiqarish jarayonlarida foydalaniladigan qurilma va moslamalar.</p>	<p>Wiring furniture</p>
	<p>Основание естественное</p>	<p>Tabiiy asos (zamin) – bino va inshootdan tushadigan og`irliklarni qabul qiladigan tabiiy holatdagi grunt.</p>	<p>Natural base</p>
	<p>Основание искусственное</p>	<p>Sun`iy asos – kimyoviy, elektrokimyoviy, termik yoki boshqa usullar bilan xossalari zichlanib, mustahkamlanib sun`iy o`zgartirilgan va binodan tushadigan og`irliklarni qabul qiladigan gruntlar.</p>	<p>Factitious base</p>
	<p>Отвод</p>	<p>Tarmoq, shaxobcha – truboprovod yo`nalishini silliq o`zgartiruvchi qismi.</p>	<p>Derivation</p>
	<p>Откос</p>	<p>Qiyalik, yonbag`ir – tabiiy grunt, o`yilgan joy, ko`tarmani chegaralab turuvchi sun`iy hosil qilingan qiya sirt, nishablik. Qiyalikning turg`unligi uning ostidagi grunt zichligiga, nishabligi va balandligiga, sirtiga tushadigan kuchlanishlarga, suv sathining vaziyatiga bog`liq.</p>	<p>Brae</p>






	<p>Отопление</p>	<p>Isitish – xonalardagi issiqlik yo`qotishlarining o`rnini qoplash va haroratni belgilangan darajada saqlab turish uchun ularni sun`iy qizdirish.</p>	<p>Heating</p>
	<p>Отстойник</p>	<p>Tindirgich – gidrouzellar va irrigatsiya inshootlari, suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlaridagi oqim tezligini pasaytirib, koagulyatsiya va tindirish yordamida suvda muallaq suzib yuruvchi aralashmalarni ajratib olish inshooti.</p>	<p>Drain sump</p>
	<p>Пандус</p>	<p>Pandus, nishab yo`lka – har xil balandlikda joylashgan sirtlarni bog`lovchi qiya tekis aloqa kommunikatsiyasi. Binolarga kiraverishda yuqoriga chiqish yoki pastga tushish uchun imkon beradigan qiya sirt, nishab yo`lka.</p>	<p>Rampant</p>
	<p>Панель</p>	<p>Panel – 1) turar-joy binolari va inshootlari qurilishida qo`llaniladigan, zavod sharoitida tayyorlangan vertikal tekis element. Yuk ko`taruvchi, ajratib turuvchi va aralash vazifalarni bajaradi; 2) bezalishi devorning boshqa qismlaridan farqlanadigan xona devorining pastki qismi.</p>	<p>Pavement</p>
	<p>Паркет</p>	<p>Parket – pol qoplamalarini bajarish uchun qattiq navli yog`ochlardan uzun taxtacha shaklida tayyorlangan material. Donali parketlarning uzunligi 150-450 mm, eni 30-60 mm va qalinligi 20 mm bo`ladi. Shuningdek, qadama naqshli va o`zaro biriktirilgan taxta parketlar bo`ladi.</p>	<p>Parquet</p>






	<p>Паркетные работы</p>	<p>Parqetlash ishlari – <i>parketdan pol qoplamasi (yuza qismi)ni qurib chiqish. Parket beton, asfalt yoki taxtadan tayyorlangan qattiq, tekis asosga yotqiziladi. Yog`och asosga mixlar bilan, sun`iy materiallardan tayyorlangan asoslarga sovuq yoki qaynoq mastika yordamida mahkamlanadi.</i></p>	<p>Parquet labour</p>
	<p>Пенобетон</p>	<p>Penobeton, ko`pik beton – <i>havo pufakchalari hosil qiladigan texnik ko`pik aralashtirilgan sement loyili ko`pik massasidan g`ovakli yengil beton turi.</i></p>	<p>Agglomerate-foam concrete</p>
	<p>Пеностекло</p>	<p>Penoshisha, ko`pik shisha – <i>maydalab yanchilgan shishani qizdirib birlashtirilishidan olingan g`ovakli material. Yopiq g`ovakli ko`pik shisha issiqlik izolyatsiyalovchi, g`ovaklari ochiq, tutashgan ko`pik shisha - tovushni yutuvchi material sifatida foydalaniladi.</i></p>	<p>Spume glassworks</p>
	<p>Пергамин</p>	<p>Pergamin – <i>tomga yopiladigan kartonga yumshoq neft bitumi shimdirib olingan rulon material. Tomga yopiladigan va izolyatsiyalovchi material sifatida foydalaniladi.</i></p>	<p>Glassine</p>
	<p>Перекрытие</p>	<p>Orayopma – <i>binoning ichki ajratib turuvchi gorizontall konstruksiyasi. Orayopmalarning qayatlararo, chordoq, yerto`la, sokol (birinchi qavat va pol osti oralig`i), transport vositalarining o`tish joyidan tepadagi kabi turlari bo`ladi. Orayopmalar odatda kompleks konstruksiya bo`lib, tarkibiga plitalar, xarilar, izolyatsion qatlamlar, pol kabilar kiradi.</i></p>	<p>Overhead cover</p>





	<p>Перемышка</p>	<p>Tepadon – 1) gidrotexnik inshoot yoki uning kotlovanini qurilish davrida suvdan saqlovchi to`siq; 2) devordagi teshik (o`yiq)ni yopib o`zidan yuqorida joylashgan konstruksiyalardan tushadigan og`irlikni ko`tarib turuvchi to`sin yoki arka shaklidagi konstruktiv element.</p>	<p>Lintel</p>
	<p>Переход мостовой</p>	<p>Ko`priqli o`tish joyi – ko`prik, unga boorish yo`llari (estakadalar, yerni o`yib yoki ko`tarma shaklidagi), qirg`oqni himoyalovchi va tartibga soluvchi inshootlardan iborat muhandislik inshootlari kompleksi.</p>	<p>Segue</p>
	<p>Перлит</p>	<p>Perlit – yorilganda mayda marvarid tusli sharikchalarga ajralib ketadigan vulqkanik shisha. Maydalangan perlit 1000-1500 °C gacha qizdirilganida hajmi 10-20 martagacha kattalashib shishadi. Shishirilgan perlitdan yengil betonlarda to`ldirgich sifatida foydalaniladi.</p>	<p>Pearl-stone</p>
	<p>Пиломатериалы</p>	<p>Tilingan binokorlik materiallari (taxta, yog`och va sh.k.) – yog`ochlarni bo`ylama arralab tayyorlanadi. Yog`ochni tilishga tayyorlashda uni diametri bo`yicha (plastinalar) yoki o`zaro perpendikulyar ikkita diametri bo`yicha (choraklar) arralanadi.</p>	<p>Industrial wood</p>
	<p>План ситуационный</p>	<p>Joylashish plani – qurilish obektining qurilish-montaj tashkilotining ishlab-chiqarish bazalari, yaqida joylashgan aholi punktlari, energiya, issiqlik va suv ta`minoti hamda kanalizatsiya, transport va aloqa tarmoqlari kabilar bilan bog`lanib joylashishi tasvirlangan plan.</p>	<p>Projet situational</p>






	<p>Пластичность</p>	<p>Plastiklik – qattiq jismlarning tashqi kuchlar taʼsirida buzilmasdan oʻzining shakli va oʻlchamlarini oʻzgartirish va bu kuchlar olinganidan keyin qoldiq (plastik) deformatsiyani saqlash xususiyati.</p>	<p>Plasticity</p>
	<p>Плита</p>	<p>Plita – bino va inshootlar qurilishida qoʻllaniladigan, eni balandligidan bir necha marta katta boʻlgan gorizontal tekis element. Yuk kotaruvchi, ajratib turuvchi, aralash (yuk koʻtarib va ajratib turuvchi), tovish izolyatsiyalovchi va yutuvchi kabi vazifalarni bajaradi.</p>	<p>Flag-stone</p>
	<p>Плинтус</p>	<p>Plintus, chaspak – pol bilan devor oraligʻidagi yoriqni berkitib turadigan, profillangan yogʻoch taxta.</p>	<p>Footstall</p>
	<p>Плотина</p>	<p>Toʻgʻon, plotina – suv sathini koʻtarish uchun suv oqimi va uning havzasini oldini toʻsuvchi tambasimon gidrotexnik inshoot.</p>	<p>Stanch</p>
	<p>Плотничные работы</p>	<p>Duradgorlik ishlari – yogʻoch konstruksiyalar va detallarni tayyorlash va oʻrnatish boʻyicha qurilish ishlari. Ularga yogʻochdan poydevor, devor, pardevor, pol, bino karkasi va orayopmalarining elementlari, tom, shuningdek muhandislik inshootlari (koʻprik, plotina, estakada)ning yogʻoch konstruksiyalarini, yordamchi qurilmalar (qurilish havozi, opalubkalar) tayyorlash kabilar kiradi.</p>	<p>Carpentry</p>






	<p>Площадка строительная</p>	<p>Qurilish maydonchasi – qurilish ob’ektini doimiy joylashtirish maqsadida belgilangan tartibda loyiha bo’yicha ajratilgan yer uchastkasi. Unda qurilish-montaj tashkilotining ishlarni bajarish bo’yicha xizmatlari ham joylashadi.</p>	<p>Level grade</p>
	<p>Погреб</p>	<p>Yerto`la – oziq-ovqatlarni yil bo`yi saqlash uchun yerni o`yib tiklangan inshoot. Alohida, turar-joy binolarining ostida va xo`jalik binosi ko`rinishda bo`ladi.</p>	<p>Cellar</p>
	<p>Поддон для кирпича</p>	<p>G`isht ragligi – g`isht va sopol toshlarni tashish paketlarini shakllantirish, g`isht pishirish pechlaridan paketlarni mexanizatsiyalashtirib chiqarish, ularni tashish vositalariga yuklash va tushirish, tashish va paketlarni g`isht teruvchilarning ish joyiga yetkazib berish uchun maydoncha.</p>	<p>Briquette dripping-pan</p>
	<p>Подземные сооружения</p>	<p>Yer osti inshootlari – transport va gidrotexnik tunnellar; metropoliten; elektrostansiyalar; omborxonalar va sovutkichlar; piyodalar o`tish joylari; garajlar; suv, neft, gaz va chiqindilarni saqlovchi idishlar; sanoat korxonalar; harbiy obyektlar uchun yer ostida tiklangan inshootlar.</p>	<p>Substructure</p>
	<p>Подземный дренаж</p>	<p>Yer osti drenaji – qurilish davrida maydonchadagi alohida uchastkalarining yer osti suvlari sathini vaqtinchalik pasaytirish yoki ob’ektlar qurilayotgan va qurilgan maydondagi yer osti suvlari sathini uzoq vaqt mobaynida pasaytirib turishga mo`ljallangan drenaj.</p>	<p>Underdrainage</p>






	<p>Подкос</p>	<p>Tirgak, podkos – panjaraning yog`och elementi. Yuk ko`taruvchi konstruksiyaning tepadagi va pastdagi qismlarini o`zaro birlashtiradi.</p>	<p>Strut</p>
	<p>Подошва фундамента</p>	<p>Poydevorning ostki qismi – poydevorga tushadigan kuchlanishlarni asosga uzatadigan poydevorning eng pastki tekisligi.</p>	<p>Foundation base</p>
	<p>Подпорная стенка</p>	<p>Tirgovuch (tamba) devor – orqasida joylashgan grunt massivini o`pirilibketishdan saqlab turasigan konstruksiya. Tirgovuch devorlar gidrotexnik qurilish (qirg`oq, prichal (kemalar bog`lab qo`yiladigan joy), shlyuzlarning kameralari, suv tushirgich va h.)da keng terqalgan. Tirgovuch devorlar tabiiy tosh, beton, temir-beton, ayrim xollarda metall va yog`ochdan tiklanadi.</p>	<p>Retention wall</p>
	<p>Подстропильный брус</p>	<p>Stropil (cherdak to`sini) osti brusi – cherdak to`sini oyog`ining pastki uchi mahkamlanadigan brus.</p>	<p>Chevron beam</p>
	<p>Подступенок</p>	<p>Zinapoya ostonasi – oldingi zinapoya sathidan ko`tarilishni yaratadigan vertikal balandlik. Zinapoya ostonasining balandligi zina marshining qiyaligini belgilaydigan parametrlardan biri hisoblanadi.</p>	<p>Riser</p>






	<p>Покрытие огнезащитное</p>	<p>Yong`indan himoyalovchi qoplama – <i>qurilish konstruksiyalarining olovbardoshlicini orttirish maqsadida tashqi yuzalariga ishlov berish (suvash, pasta surtish va h.).</i></p>	<p>Fire-protective carpet</p>
 <p>1. Плита березовая 2. Выравнивающий слой цемента 3. Утеплительный материал ISO-SP. Полимерный Пено 4. Гидроизоляция 5. Цементно-песчаная стяжка 6. Чистовой пол</p>	<p>Пол плавающий</p>	<p>Qalquvchi pol – <i>yonma-yon xonalarda tovush izolyatsiyasini orttirish maqsadida orayopma va devorlardan amortizatsiyalovchi yoki izolyatsiyalovchi qurilmalar bilan ajratilgan pol.</i></p>	<p>Free-standing floor</p>
	<p>Полотно мостовое</p>	<p>Ko`prik ko`tarmasi – <i>transport vositalari og`irligini bevosita qabul qilib, kuchlanishlarni qurilmaning boshqa qismlariga uzatadigan ko`prik qulochining bir qismi.</i></p>	<p>Axle track bed</p>
	<p>Поручень</p>	<p>Tutqich – <i>zinapoya yoki balkon to`sini (panjarasi)ning ustki qismi.</i></p>	<p>Hand-rail</p>
	<p>Пояс антисейсмический</p>	<p>Zilzilaga qarshi belbog` - <i>binoning yuk ko`taruvchi konstruksiyalari bo`ylab o`rnatilgan uzluksiz armaturali yopiq temir-beton konstruksiya.</i></p>	<p>Bond</p>






	<p>Приборы санитарные</p>	<p>Sanitariya asboblari – turar-joy, jamoat, kommunal va ishlab chiqarish binolarida o`rnatiladigan, xo`jalik va maishiy oqava suvlarini yig`ib uzatishga moslangan asboblari. Ishlatilishiga qarab quyidagi turlarga bo`linadi: gigiyenik maqsadlar uchun (bet-ko`l yuvgich (umivalnik), vanna, dushxona tagligi, unitaz va h.), xo`jalik maqsadlari uchun (oshxona chanog`i, yuvg`ich va h.), maxsus maqsadlar uchun (laboratoriyalar, bolalar va tibbiyot muassasalari, ishlab chiqarish binolaridagi maishiy xizmat xonalari).</p>	<p>Sanitary appliance</p>
	<p>Прогон</p>	<p>To`sin, tayanch, progon – binodagi asosiy yuk ko`taruvchi konstruksiyalar (to`sin, ferma va h.)ga yotqiziladigan konstruktiv element. Asosan tom og`irligini qabul qilishga mo`ljallangan.</p>	<p>Balk</p>
	<p>Проем монтажный</p>	<p>Montaj (yig`ish) teshigi – yirik o`lchamli jihozlar yoki konstruksiyaning katta birikmalarini yig`ish joyiga erkin tashilishini ta`minlash maqsadida loyihada ko`zda tutib devor yoki orayopmada qoldirilgan teshik.</p>	<p>Editing room aperture</p>
	<p>Пролетное строение моста</p>	<p>Ko`prikning quloqli tuzilishi – ko`prik quloqli (prolyot)larini (tayanchlari orasidagi bo`shliq) yopish, transport vositalari, shamol kabi tasirlarning kuchlanishlarini qabul qilib tayanchlarga uzatuvchi konstruksiya.</p>	<p>Superstructure</p>





	Проступь	Zinapoya yuzasi – zina pog`onasining oyoq qo`yiladigan gorizontal qismining eni. Zinapoya yuzasining eni zinapoya marshining qiyaligini aniqlaydigan parametrlardan biri hisoblanadi.	Stumble
	Пути эвакуации	Evakuatsiya yo`llari – bino va inshootlardan kishilarni har xil xonalar, koridorlar, zinapoya va lift bo`linmalari, galereyalar va balkonlar orqali evakuatsiya qilishni ta;minlaydigan o`tish joylari.	Clearing road
	Пуццоланы	Putsolanlar – vulkanik material (kul va h.)larning bo`sh birikkan qatlamlari, vulkanik tuflarning bir ko`rinishi. Oqish rangli putsolanlardan gidravlik ohak va putsolan sement tayyorlashda foydalaniladi. Bunday sement suv va sulfat ra'siriga o`ta chidamli bo`lib, portlandsementga nisbatan hava va sovuqqa chidamsiz.	Pozzolana
	Работы геодезические	Geodezik ishlar – qurilish ob`ekti geometrik parametrlarining loyihaga mosligini ta'minlovchi, qurilish jarayonida rejalash va qurilish-montaj ishlarini geodezik nazorat qilish hamda qurilayotgan bino va inshootlarning deformatsiyalarini kuzatish bo`yicha o`lchovlar va hisob-kitoblar.	Geodetic working
	Работы специальные	Maxsus ishlar – izolyatsiyalash, gruntlarni mustahkamlash, texnologik jihozlar, truboprovodlar, nazorat va avtomatika vositalarini montaj qilish, elektromontaj ishlari kabilar.	Special working






	<p>Развязка транспортная</p>	<p>Transport tugunlarining yechilishi (yo`llar ostun-ustun o`tdigan chorraha) – <i>har xil transport vositalarini ajratish yoki bir xil transport vbositalari o`imini kesishuvda qoshilishlariga xizmat qiladigan muhandislik inshooti yoki inshootlar kompleksi. Bir yoki bir nechta sath (balandlik)larda tashkil qilinishi mumkin.</i></p>	<p>Transport upshot</p>
	<p>Рампа</p>	<p>Rampa – 1) ikkita har xil sathlarni birlashtiruvchi moslama (masalan, yuklarni temir yo`l platformasiga ko`tarish, yuk tashuvchi transport vositalariga chiqarib-tushirish va h.); 2) sahna oldiga o`rnatilgan, yorug`i faqat sahмага tushadigan chiroqlar; 3) shunday chiroqni tomoshabindan yashirib turadigan pastak to`siq.</p>	<p>Float</p>
	<p>Рандбалка</p>	<p>Poydevor to`sinini – alohida turgan poydevorlarga tayanib, tepada joylashgan devordan tushadigan og`irliklarni qabul qiladigan to`sin.</p>	<p>foundation beam</p>
	<p>Раствор грунтовой</p>	<p>Loy qorishnasi – yumshatuvchi qo`shimchalar (masalan, ohak va b.) bilan gruntdan tayyorlangan qorishma.</p>	<p>Ground solution</p>
	<p>Расшивка швов</p>	<p>Choklarni pargozlash (g`isht terishda) – choklarga har xil: bo`rtma, ovalsimon, uchburchak, to`g`ri burchak kabi shakllarni maxsus pardozlash asbobida bajarish.</p>	<p>Flushing seam</p>






	<p>Репер</p>	<p>Reper – <i>biror joyning mutloq balandligini ko`rsatuvchi metall disk shaklida tayyorlangan belgi. Uzoq vaqtga mo`ljallangan binolarning devorlariga o`rnatiladi yoki gruntga monolit beton qilib o`rnatiladi.</i></p>	<p>Benchmark</p>
	<p>Ригель</p>	<p>To`sin, rigel – <i>bino va inshootlarning konstruksiyasidagi chiziqli yuk ko`taruvchi element (yaxlit yoki panjarasimon). Ustun va kolonnalarni birlashtiradi (ramaning to`sinlari), xari (progon) va plitalarga tayanch (yopma va orayopmalarning to`sinlari) bo`lib xizmat qiladi. Temir-betom, po`lat va yog`ochdan tayyorlanadi.</i></p>	<p>Rigel</p>
	<p>Роза ветров</p>	<p>Shamollar yo`nalishi – <i>mazkur hudud uchun shamolning turli xil yo`nalishlarda oylik, mavsumiy va yil davomida asosiy rumb (11,25° ga teng kompas darajasi)lar bo`yicha takrorlanishining grafik tasvirlanishi.</i></p>	<p>Catherine-wheel</p>
	<p>Ростверк</p>	<p>Rostverk – <i>qoziq (svaya)li poydevor ustki qismining beton yoki temir-beton plita yoki to`sin (3) ko`rinishidagi konstruksiyasi. Poydevor qoziqlarini bitta turg`un tizimga birlashtirib, og`irliklarni qoziqlarga teng taqsimlaydi.</i></p>	<p>Cap, capping</p>
	<p>Рубероид</p>	<p>Ruberoid – <i>tomga yopiladigan va izolyatsiya materiali sifatida ishlatiladigan yumshoq o`ramli material. Tomga yopiladigan kartonga neft bitumi shimdirilib, ustidan ikki tarafga qiyin eriydigan bitum bilan sepma qoplanadi.</i></p>	<p>Roofing felt</p>






	<p>Самонесущая стена</p>	<p>O`z-o`zini ko`taruvchi devor – bino yoki inshootda ajratuvchi (qismlarga bo`luvchi) vazifasini bajarib, vertikal kuchlanishlarni qabul qilmasdan faqat o`z og`irligini ko`tarib turuvchi devor.</p>	<p>wall of partition</p>
	<p>Свая</p>	<p>Qoziq, svaya – gruntga qoqiladigan yoki burg`ilangan quduqda tayyorlanib, inshootdan uzatiladigan kuchlanishlarni qabul qilib gruntga uzatuvchi konstruktiv element. Qoziqlar o`rnatilish usuli, ishlatilashi, materiali va tayyrlanish joyi, konstruktiv xossalari, kuchlanishlarni uzatish sxemasiga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi: vintsimon, osma, tuproqli, qoqiladigan, to`ldirilgan va h.</p>	<p>Pale, pile</p>
	<p>Свая колонна</p>	<p>Qoziq kolonna – qoqib o`rnatiladigan qoziqlarning bir turi, yerdan yuqorida joylashgan qismi bino yoki inshootning kolonnasi, gruntga kiritilgan qismi esa qoziq vazifasini bajaradi.</p>	<p>Pile vertical tower</p>
	<p>Свая оболочка</p>	<p>Qobiq qoziq – temir-betondan tayyorlangan ichi bo`sh, dumaloq qoziq. Bo`shliq grunt yoki beton bilan to`ldiriladi.</p>	<p>Pile shell</p>
	<p>Свая столб</p>	<p>Ustun qoziq – silindrik yoki prizmatik yaxlit temir-beton qoziqlarning bir turi. Oldindan burg`ilab tayyorlangan quduqqa o`rnatilib, quduq devoir va temir-beton element orasidagi bo`shliq qum-sementli yoki gruntli qorishma bilan to`ldiriladi.</p>	<p>Pile pylon</p>






	Сверление	Parmalash – <i>beton elementlari va konstruksiyalarida teshik hosil qilishning texnologik jarayoni.</i>	Boring
	Свод	Gumbaz, qubba – <i>binoyoki xonani yopishda qo`llaniladigan egri chiziqli shakldagi qurilish konstruksiyasi.</i>	Fornication
	Связи (в строительных конструкциях)	Bog`lanishlar (qurilish konstruksiyalarida) – <i>binoy (inshoot) karkaslarining fazoviy bikrligi, shuningdek asosiy (yuk ko`taruvchi) konstruksiyalarning turg`unligini ta`minlaydigan elementlar. Bog`lanishlar tizimi odatda sterjenli konstruksiyalar (ferma, qo`zg`aluvchan rama) va alohida sterjenlar (qiya tirgovuch va h.)dan tashkil topadi.</i>	Relation
	Сгон	Ulama – <i>bir uchiga kalta, ikkinchi uchiga uzun rezba kesilgan quvur. Uzun rezbaga mufti va kontrgayka "ulanadi".</i>	Drive
	Серпантина	Serpantin – <i>tog`li joylardagi aylanma, ilonizi yo`i. Avtomobil yo`li burilishining bir ko`rinishi. Ikkita yo`nalishdagi yo`llarning o`tkir burchak ostida uchrshuv joylarini tutashtirishda quriladi.</i>	Highway spiral, serpentine






	<p>Сети инженерные</p>	<p>Muhandislik tarmoqlari – <i>aholi punktlari va sanoat korxonalari hududlarida, shuningdek binolarda har xil maqsadlar (suv quvurlari, kanalizatsiya, isitish, aloqa va h.) uchun yotqizilgan truboprovodlar va kabellar.</i></p>	<p>Mains, sagene</p>
	<p>Сеть электрическая</p>	<p>Elektr tarmog`i – <i>elektrostansiyani istemolchi bilan bog`laydigan elektr liniyalari, podstansiyalar, taqsimlovchi va elektr toki yo`nalishini o`zgartiruvchi punktlar jamlanmasi.</i></p>	<p>Mains</p>
	<p>Силикатный кирпич</p>	<p>Silikat g`isht – <i>ohak (7-10%) va yaltiroq (kvarts) qum aralashmasini avtoklav ishlov berib olingan devorbop material. Loydan tayyorlangan g`ishtlarga nisbatan silikat g`ishtni tayyorlashga kam mehnat sarflanadi, sezilarli darajada arzon. Doimiy namlik ta`sirida silikat g`ishtning mustahkamligi pasayadi, shuning uchun ham uni devorlarning yerdan balandda joylashgan qismlarida ishlatiladi.</i></p>	<p>Calcium silicate brick</p>
	<p>Склад приобъектный</p>	<p>Ob`ektdagi omborxonona – <i>qurilish materiallari, mahsulotlar, konstruksiyalar va jihozlarni saqlashga mo`ljallangan omborxonona (inshoot, xona, maydoncha). Qurilishni tashkil etish loyihasi bo`yicha tiklovchi yuk ko`targich (kran)ning harakatlanish zonasida joylashtiriladi.</i></p>	<p>Green-room</p>






	<p>Скобяные изделия</p>	<p>Mayda metall buyumlar – <i>qurilish va duradgorlik ishlarida qo`llaniladigan, asosan o`zaro biriktirishda qo`llaniladigan kichik metall detallar (band, xalqa, uchburchak va h.).</i></p>	<p>Hardware, hardware product</p>
	<p>Скользая опалубка</p>	<p>Sirpanuvchi qolip – <i>beton yoki boshqa qorishma bilan to`ldirilishiga qarab yuqoriga ko`tarilib boradigan qolip.</i></p>	<p>Slip form</p>
	<p>Соединение фланцевые</p>	<p>Gardishli birikma – <i>truboprovodning ajraladigan, qo`zg`almas qismi. Zichlovchi qistirmalarni siqish yo`li bilan germetikligi ta`minlanadi.</i></p>	<p>Tubing bonnet suture</p>
	<p>Сооружение</p>	<p>Inshoot – <i>texnik jarayonlar uchun xizmat qiladigan (ko`prik, teleminora, tunnel va h.) yer osti va yer ustidagi qurilish konstruksiyalari tizimi.</i></p>	<p>Framing</p>
	<p>Сооружение мостового типа</p>	<p>Ko`priksimon inshoot – <i>dara, jarlik, yo`l, temir yo`l izlari kabi to`siqlardan o`tishga xizmat qiladi.</i></p>	<p>Axle framing</p>

	<p>Стекло армированное</p>	<p>O`zaklangan shisha – ichiga nikellangan yoki xromlangan po`lat sim preslab joylashtirilgan shisha. Po`lat similar shisha shikastlanganda shisha siniqlarini tutib turuvchi karkas vazifasini bajaradi.</p>	<p>Glassworks glassworks</p>
	<p>Стекло жидкое</p>	<p>Suyuq shisha – yaltiroq (kvarts) qum va soda aralashmasini kuydirib tayyorlangan yengil bog`lovchi modda. Olingan shisha maydalanganidan keyin suvda eritiladi. Natriyli suyuq shisha maxsus xossalari (kislotaga chidamli, olvbardosh) betonlar, olovdan himoyalovchi bo`yoqlar kabi materiallar ishlab chiqarishda qo`llaniladi.</p>	<p>Glassworks molten</p>
	<p>Стекло ячеистое (пеностекло)</p>	<p>G`ovakli shisha (ko`pik shisha) – pechkada shisha kukunini gaz hosil qiluvchi ta`sirida shishirib, qizdirib biriktirish natijasida olingan g`ovakli issiqlik izolyatsiyalovchi material. G`ovakli shisha eng mustahkam issiqlik izolyatsiyalovchi materiallardan hisoblanadi.</p>	<p>Glassworks vesicular</p>
	<p>Стеклопакет</p>	<p>Shishapaket, shishato`plam – metall ramkaga germetik mahkamlangan, ikki yoki uch shisha listi (mos ravishda bir yoki ikki kamerali paket)dan iborat paket. Shishapaket ichidagi havo siyraklashtiriladi yoki inert gaz to`ldiriladi. Shishapaketning icciqlik va tovush izolyatsiyasi yaxshi bo`lib, germetikligi, “terlamlasligi” va ichidan kir bo`lmasligi bilan farqlanadi.</p>	<p>Glassworks packet</p>
	<p>Стеклорубероид</p>	<p>Shisharuberoid – shishatolali xolst (kanopdan to`qilgan mato)ga bitumli (bitumorezinali yoki bitumopolimer) bog`lovchi materialni ikki tarafidan surtib olinadigan o`ram material. Shisharuberoid bir yoki ikki tarafidan yaxlit sepma bilan qoplanadi.</p>	<p>Glassworks roofing felt</p>






	Стена в грунте	Grunt-dagi devor – yer ostida va yerni o`yib tiklanadigan inshootlarning vertikal devorlarini tiklash usuli, shuningdek xandaklarda grunt qulashini oldini olish maqsadida ham o`rnatiladi.	Side dredgings
	Стена панельная	Panel devor – chorqirra ramaning ichiga issiqlik o`tkazmaydigan material joylanib, uctidan fanera yupqa taxta qoplanib tayyorlangan panel (shchit).	Panel wall of partition
	Стена подпорная	Tirgovuch devor – orqasida joylashgan grunt massivini qulab tushishdan saqlash va tepadan uzatiladigan kuchlanishlarni qabul qilishga mo`ljallangan konstruktsiya.	Retention wall
	Стенка шпунтовая	Shpunt (tirnoq) devor – gruntga shpunt qoziq (yog`och, temir-beton, po`lat)lar qoqib hosil qilingan yaxlit devor. Gidrotexnik inshootlar (mustahkamlangan qirg`oq, shlyuzlarning kameralari)ni tiklashda suv o`tkazmaydigan to`siq vazifasini bajaradi. Kotlovan, xandaklarni devorlarini fjratiib turishda ham qo`llaniladi.	wall of partition
	Стойка	Ustun – inshoot tayanishi uchun zarur bo`lgan yog`och brus yoki tirgak.	Support






	<p>Стойак</p>	<p>Stoyak, mo`ri, quvur – turar-joy, jamoat va ishlab chiqarish binolarining ichidagi hamma qavatlarini orqali o`tdigan vertikal truboprovod. Suv yoki gazni tarmoqlar orqali yetkazib berishga, sanitar qurilmalar va turli yig`ish qurilmalaridan yig`iladigan suvlarni chiqarib tashlashga xizmat qiladi.</p>	<p>Marine riser</p>
	<p>Стропила</p>	<p>Chordoq to`sinini, stropila – nishabli tomning yuk ko`taruvchi konstruksiyasi. Stropila og`ma to`sin oyoqlari, vertikal ustunlar va qiya tirgaklardan tashkil topadi. Zarur xollarda stropilaning pastki qismidan stropila osti to`sinlari bilan birlashtiriladi.</p>	<p>Framework</p>
	<p>Стяжка</p>	<p>Tortma, qoplama – tom, pol va izolyatsiyalovchi qoplamalarni o`rnatishda asos sirtini tekislovchi material qatlami.</p>	<p>Tension rod</p>
	<p>Схема</p>	<p>Sxema – qurilma, inshoot yoki tarmoqlarning ishlash prinsiplari, bajarilish ketma-ketligi kabilarning yozma va texnik-iqtisodiy asoslangan grafik tasvirlanishi. Rasmda metall cherepitsa yopma bajarilish sxemasi keltirilgan.</p>	<p>Scheme</p>
	<p>Тамбур</p>	<p>Tambur, peshayvon – binoga kirishdagi o`tish xonasi. Tashqi va binodagi eshiklarning ketma-ket joylashtirilishi xonalarga tashqaridan sovuq havo kirishiga to`sqinlik qiladi.</p>	<p>Vestibule, air lock</p>





	<p>Тамбур-шлюз</p>	<p>Tambur-shlyuz (darvoza) – bir xonadan ikkinchisiga olov, gazlar, bug`lar, chang va boshqa zararli moddalarni o`tishini oldini oluvchi, shuningdek xonalarda havo muhitini belgilangan darajada saqlab turuvchi maxsus qurilmalar bilan jihozlangan tambur.</p>	<p>Air lock sluice</p>
	<p>Теплоснабжение</p>	<p>Issiqlik ta`minoti – turar-joy, jamoat va sanoat binolarini hamda texnologik istemolchilarni issiqlik tashuvchi (issiqlik suvi yoki bug`) va isitish, shamollatish tizimlari yordamida issiqlik bilan ta`minlash, issiqlik suvi ta`minoti.</p>	<p>Heat supply</p>
	<p>Территория селитебная</p>	<p>Seliteb hudud – shahar hududining turar-joy va jamoat binolarini qurish, bog` va xiyobon kabilarni joylashtirishga mo`ljallangan qismi.</p>	<p>Mixed zone</p>
	<p>Тетива</p>	<p>Tetiva – zina pog`onalarini zinaning yon tarafdagi qismiga o`yib kiritib mahkamlash uchun zarur bo`lgan zina elementi.</p>	<p>String</p>
	<p>Толь</p>	<p>Qoraqog`oz, tol – gidroizolyatsiyalash va tomga yopishda ishlatiladigan material. Tomga yopiladigan kartonga toshko`mirli yoki slanetsli qatron shimdirish yo`li bilan olinadi.</p>	<p>Roofing felt</p>






	Тоннель (туннель)	Tunnel – <i>temir va avtomobil yo`llari, piyodalarning o`tish joylari hamda aloqa yo`llari kabilarni yotqizishga mo`ljallangan, balandigi 2 m va undan ortiq bo`lgan, yer tagi va tog` tagidan o`tkazilgan, katta masofaga cho`zilgan inshoot.</i>	Tunnel
	Торкретирование	Torkretirlash – <i>ishlov beriladigan sirt yoki shaklga siqilgan havo yordamida sement-qum qorishmasi (torkret) yoki beton qorishmasinu surtish.</i>	Filling
	Трасса	Trassa, katta tekis yo`l – <i>loyiha talablariga javob beradigan chiziqli inshoot (yo`l, truboprovod, elektr uzatish liniyalari va h.) oqining vaziyati. Ikkita proyeksiya: gorizontal (plan) va vertikal (bo`ylama profil)lari bo`yicha aniqlanadi.</i>	Run
	Установка дренчерная	Drencher qurilmasi – <i>avtomatik o`t o`chirish qurilmasi. Bir vaqtning o`zida xonaning hamma joyidagi olovni o`chirish, shuningdek suv pardasi hosil qilishga mo`ljallangan maxsus kiygizma – sochuvchi apparat (drenchel)lar o`rnatilgan quvurlar tarmog`i.</i>	Fitting drain
	Установка спринклерная	Sprinkler qurilmasi - <i>avtomatik o`t o`chirish qurilmasi. Maxsus suv sepgich kiygizma (sprinkler)lar o`rnatilib, hamma vaqt suvga to`latib qo`yiladigan quvurlar tizimi, xonadagi yong`in manbasining kengayishiga yo`l qo`ymasdan, mahalliy o`t o`chirishga mo`ljallangan.</i>	Sprinkler system






	<p>Устойчивость здания (сооружения)</p>	<p>Bino (inshoot)ning turg'unligi – bino (inshoot)ning dastlabki statik va dinamik turg'unlik holatidan chiqarishga harakat qiladigan kuchlanishlarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati.</p>	<p>Construction stability</p>
	<p>Фальц</p>	<p>Chok, tirnoq – metall qoplamali tomdagi listlarni biriktirish chokining bir turi. Ikki qavatli tik chokning germetikligi va nam otkazmaslik darajasi yuqori bo'ladi.</p>	<p>Fold</p>
	<p>Фальш-пол</p>	<p>Soxta pol – sanoat binolarining pol osti qismi shamollatiladigan, ajraladigan va qayta yig'iladigan (ochib-yopiladigan) poli. Soxta polga elektrotexnik va boshqa tarmoqlar yotqiziladi.</p>	<p>Fake underlayer</p>
	<p>Фанера</p>	<p>Faner – toq sonli (uch va undan ortiq) shpon (bir qavatli yupqa faner) listlaridan yelimlab tayyorlangan qatlamli yog'och material. Fanerda yonma-yon joylashgan shpon tolalari o'zaro perpendikulyar joylashtiriladi. Egilish va buralishga chidamli maxsus fanerlarda tolalar o'zaro 30°, 45°, 60° lik burchak ostida joylashtiriladi. Mahsulotning hamma qatlamlaridagi tolalar o'zaro parallel joylashgan bo'lsa laminatsiyalangan faner deyiladi.</p>	<p>Ply-wood</p>
	<p>Фасад вентилируемый</p>	<p>Shamollatiladigan (ventilyatsiyalanadigan) fasad – keyingi vaqtlarda panellar va isitkichlar qo'llanilib ventilyatsiyalanadigan fasad konstruksiyalari keng ommalashmoqda. Bunday ventilyatsiyalanadigan fasad tez yig'iladi, issiqlikni saqlashi yuqori, uzoqqa chidaydi va chiroyli tashqi ko'rinishga ega.</p>	<p>Ventilate housefront</p>





	<p>Фаска</p>	<p>Faska, qirra – yuza tarafdagi sirt va yon tomonga 45° burchak ostuda randa bilan bajarilgan kesik.</p>	<p>Flat</p>
	<p>Ферма</p>	<p>Ferma – yuqorigi va pastki belbog`lar hamda ular orasida joylashgan ustun va xarilardan tuzilgan panjaradan iborat konstruksiya.</p>	<p>Framework</p>
	<p>Фибробетон</p>	<p>Fibrobeton – maydalangan sintetik yoki shisha tola bilan o`zaklangan mayda donali beton asosida olinadigan konstruksion material.</p>	<p>Fiber concrete</p>
	<p>Фибролит акустический</p>	<p>Akustik fibrolit – yog`ochdan olinib ishlov berilgan material yoki sintetik tola va mineral bog`lovchi (portlandsement yoki gips) aralashmasidan olingan material. Fibrolitning tovush yutish koeffitsiyenti 0,4 dan kam bo`lmaydi.</p>	<p>Fibrolite acousto</p>
	<p>Фундамент</p>	<p>Poydevor – imoratning kuchlanishlarni qabul qilib ularni asosga uzatadigan, yer ostida joylashgan qismi. Monolit yoki yig`ma bo`lishi mumkin.</p>	<p>Foundation</p>

	<p>Фундамент ленточный</p>	<p>Tasmasimon poydevor – beton yoki temir-betondan tayyorlangan monolit yoki yig`ma tasma. Imorat qurilishida perimetr bo`yicha o`radi. Tasmasimon poydevorda yog`och uylardan monolit uylargacha tiklash mumkin.</p>	<p>Band foundation</p>
	<p>Фундамент плитный</p>	<p>Plita fundament – qurilish ostida joylashgan yaxlit temir-beton mahsulot, inshootdan tushadigan kuchlanishlarni qabul qiladi.</p>	<p>Mat foundation</p>
	<p>Фундамент столбчатый</p>	<p>Ustunsimon poydevor – ustunlar tizimining tartib bilan binoning burchaklari va perimetrlari boylab, devorlarning kesishish joylarida, yuk ko`taruvchi va og`ir devorlar kabi binodan tushadigan kuchlanishlar yig`iladigan joylarga o`rnatilishi.</p>	<p>Columnar foundation</p>
	<p>Фундамент свайный</p>	<p>Qoziq poydevor – bunday poydevorlarda bino yoki inshootlarning qoziqlaridan tepadan tushadigan kuchlanishlarni gruntga uzatishda foydalaniladi. Suvga toyingan, mustahkam bo`lmagan gruntlarda imoratlarni qoziq poydevorlarda tiklash maqsadga muvofiq. Qoziq poydevorlar qo`llanilganda ko`p hollarda yer ishlari va beton sarfi sezilarli darajada kamayadi.</p>	<p>Pile foundation</p>
	<p>Футляр</p>	<p>G`ilof - asosiy truboprovodni yo`l ostidan o`tish joylarida, bino va inshootlar konstruksiyalari ostidan o`tkazishda, shuningdek muhandislik tarmoqlari va inshootlari bilan kesishuv joylarida gazlar va zararli moddalardan nimoyalovchi quvur.</p>	<p>Case</p>

	<p>Хомут</p>	<p>Xomut, qisqich – <i>konstruksiya elementlarini birlashtirish uchun ishlatiladigan xalqa shaklidagi detal (skoba).</i></p>	<p>Collar</p>
	<p>Цоколь</p>	<p>Sokol, poypesh – <i>bino yoki inshoot tashqi devorining bevosita poydevor ustida joylashgan, mexanik, harorat o`zgarishlariga tez-tez uchrab turadigan pastki qismi.</i></p>	<p>Ap socle</p>
	<p>Чердак</p>	<p>Chordoq – <i>ustki tom bilan ostki tom yoki shipning oralig`i.</i></p>	<p>Attic</p>
	<p>Черный пол</p>	<p>Qopalama pol – <i>orayopma xarilari ustidan yotqizilgan to`shama. Ustidan isimkich qatlami yotqiziladi.</i></p>	<p>Rough underlayer</p>

	<p>Черный (черновой) ПОТОЛОК</p>	<p>Qoralama ship – <i>pastidan qoplama bilan berkitilgan, ship xarilariga o`rnatilgan to`shama.</i></p>	<p>Rough soffit</p>
	<p>Шамот</p>	<p>Shamot – <i>erib, birikkunicha olovda pishirilib, keyin yanchib maydalangan olovbardosh loy.</i></p>	<p>Coal clay</p>
	<p>Шпон</p>	<p>Shpon – <i>yupqa yog`och listlari ko`rinishidagi qoplama material. Qimmatbaho yog`och navlaridan tayyorlangan bruslarni randalab yoki olxa, oq qayin, qarag`ay kabi daraxtlarning kalta g`olalari bug`da dimlanib, shpontiluvchi stanoklarda tilib tayyorlanadi. Qatlamli yog`och va faner tayyorlashda ishlatiladi. Yuqori sifatli shponlar musiqa asboblari tayyorlashda qo`llaniladi.</i></p>	<p>Veneer</p>
	<p>Штапик</p>	<p>Shtapik – <i>yog`och yoki polivinilxlorid (PVX)dan tayyorlangan ensiz reyka. Shishalarni karkas, jild kabilarga mahkamlab o`rnatishda, shuningdek bezakli hoshiya sifatida xizmat qiladi.</i></p>	<p>Staple</p>
	<p>Щебень</p>	<p>Shagqal, sheben – <i>tog` jinslari va toshqol kabi materiallarni 10 mm dan 100 mm gacha kattalikda maydalab tayyorlanadi. Tabiiy va sun`iy shag`allar bo`ladi.</i></p>	<p>Ballast</p>

	<p>Эмалированные плитки</p>	<p>Sirlangan plitkalar – <i>sirti rangli shisha qatlami bilan qoplangan plitkalar. Sirlash bilan plitkalarining estetik xarakteristikalari (rang, yaltiroqlik, tasvirlar, tushlanish va h.) hamda texnik xossalari (qattqlik, o`tkazmaslik va h.) yaxshilanadi.</i></p>	<p>Enamelled tile</p>
	<p>Эстакада</p>	<p>Estakada – <i>tayanchlar qatoriga o`rnatilgan qurilmalardan tashkil topgan, uzoqqa cho`zilgan, yer (suv) ustiga tiklangan ochiq inshoot. Transport vositalari (piyodalar harakati)ni o`tkazish, har xil aloqa rarmoqlarini yotqizish, yuklarni tushirish va yuklash kabi ishlarga mo`ljallangan.</i></p>	<p>Overhead road</p>
	<p>Этаж</p>	<p>Qavat – <i>binoning balandlik bo`yicha pol va orayopma yoki pol va yopma bilan chegaralangan qismi.</i></p>	<p>Level</p>
	<p>Этаж мансардный (мансарда)</p>	<p>Mansarda, <i>qiya shipli boloxona – chordoqning isitilgan chegaralovchi konstruksiyalari (baland tomning nishablari)dagi bo`sh joylarda xonalar joylashtiriladigan qavat.</i></p>	<p>Cockloft</p>
	<p>Этаж подвальный (подвал)</p>	<p>Podval (yerto`la) qavati, <i>podval – polining sathi rejalashtirilgan yer (piyodalar yo`lakchasi, tashqi devor atrofi to`shamasi) sathidan qavat balandligining yarmidan ko`prog`icha pastda joylashgan qavat.</i></p>	<p>Basement</p>

	<p>Этаж технический</p>	<p>Texnik qavat – <i>bino ostida, binoning tepadagi qavatidan pastda, ko`p qavatli binolarning o`rtadagi bir yoki bir nechta qavatlarida muhandislik inshootlarini joylashtirish va aloqa tarmoqlarini yotqizish ushun foydalaniladigan qavat.</i></p>	<p>Technological level</p>
	<p>Этаж цокольный</p>	<p>Sokol qavati – <i>xonalari balandligining yarmidan ko`p bo`lmagan qismi yer (piyodalar yo`lakchasi, tashqi devor atrofi to`shamasi) sathidan pastda joylashgan qavat.</i></p>	<p>ground floor</p>
	<p>Этажерка</p>	<p>Etajerka, ochiq javon – <i>orayopmalarida texnologik yoki boshqa jihozlar va transport vositalarini joylashtirishga mo`ljallangan, bino ichida yoki undan tashqarida erkin turgan ko`p qavatli devorsiz inshoot.</i></p>	<p>Canterbury</p>
	<p>Ярус</p>	<p>Yarus, qavat – <i>bino (inshoot)ning balandliklari bo`yicha shartli chegaralab, qismlarga ajratilgan qismi.</i></p>	<p>Storey</p>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Murodov Sh.K., Ashirboyev A.O. Chizma geometriya va chizmachilikdan ruscha-o`zbekcha lug`at. T.: “FAN” nashriyoti, 2008. – 192 b.
2. Ro`ziyev E.I., Ashirboyev A.O. Muhandislik grafikasini o`qitish metodikasi. /prof. E.Roziyev tahriri ostida. T. “Yangi asr avlodi”, 2010. – 248 b.
3. Ro`ziyev E.I., Ro`ziyev G.E. Arxitektura-qurilish chizmachiligi. T. “Yangi asr avlodi”, 2014. – 350 b.
4. Абдумаликов А. Чизмачиликдан терминологик луғат-справочник. Т.: Ўқитувчи, 1977. – 144 б.
5. Бинокорликдан русча-ўзбекча атамалар луғати. /проф. Х.Расулов таҳрири остида. Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1994. – 224 б.
6. Ковалевский В.И., Қўчқоров У.Х. Амалий механикадан тасвири қисқача русча-ўзбекча луғат. Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1995. – 430 б.
7. Политехника луғати. /махсус муҳаррир Т.Р.Рашидов. Т.: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1989. – 704 б.
8. Тўрахонов А. ва б. Металлшунослик ва машинасозлик технологиясидан русча-ўзбекча атамалар луғати. Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1994. – 120 б.
9. Қўшжонов М.Қ. ва б. Русча-ўзбекча луғат. I том. Т.: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1983. – 808 б.
10. Қўшжонов М.Қ. ва б. Русча-ўзбекча луғат. II том. Т.: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1984. – 800 б.
11. Ананьин М.Ю. Основы архитектуры и строительных конструкций: Термины и определения. Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 132 с.
12. Виноградов В.Н. и др. Словарь-справочник по черчению: кн. для учащихся/. – М.: Просвещение, 1999. – 160 с.
13. Ефимов П.П. Архитектурные термины и определения. Омск: Изд-во “Дантея”, 2005. – 132 с.
14. Малеева Е.В., Еременко Г.В., Деменева Е.А. Архитектурно-строительная терминология: учебное пособие. Ставрополь: Изд-во “Логос”, 2015. – 247 с.
15. Мюллер В.К. Полный англо-русский русско-английский словарь. 300 000 слов и выражений. М.: Эксмо, 2013. 1328 с. – (Библиотека словарей Мюллера)
16. Шеина Т.В. Архитектурное материаловедение. Часть I. Самара: Самарск.гос.арх.-строит.ун-т. 2011. – 360 с.
17. Шеина Т.В. Архитектурное материаловедение. Часть II. Самара: Самарск.гос.арх.-строит.ун-т. 2011. – 348 с.

18. Шварц В.В. Краткий иллюстрированный русско-английский словарь по машиностроению. 3795 терминов. 2-е изд., стереотип. М.: Русский язык, 1983. – 224 с.
19. Русско-английский (американский) тематический словарь. 9000 слов. Кириллическая транслитерация. М.: Т&P Books Publishing. 2013. – 256 с.
20. Единая система конструкторской документации. М.: ИПК Издательство стандартов, 2004. – 160 с.
21. Means R.S. Illustrated construction dictionary. Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey, 2012. – 375 p.
22. Davies N., Jokiniemi E. Dictionary of architecture and building construction. 2008. – 726 p.

Ro`ziyev E.I., Sharipov Sh.S.

Muhandislik grafikasi, arxitektura va qurilish cizmachiligidan tasvirli qisqacha ruscha-o`zbekcha-inglizcha lug`at. Oliy ta`lim muassasalari talabalari uchun o`quv qo`llanma. / O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi. – T.: 2019-yil. - 204 b.

ERKIN ISKANDAROVICH RO`ZIYEV
SHAVKAT SAFAROVICH SHARIPOV

**Muhandislik grafikasi, arxitektura
va qurilish cizmachiligidan tasvirli qisqacha
ruscha-o`zbekcha-inglizcha lug`at**

oliy ta`lim muassasalari talabalari uchun o`quv qo`llanma